
BIBI ROBIA SAIDOVA

PARVOZ

Hikoyalar



«ADIB»

Тошкент – 2014

UOK: 821.512.133-1

KBK: 84(O')7

S90

Mas'ul muharrir:

Isajon Sulton

*Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Yoshlar bilan ishlash bo'limi tomonidan
nashrga tavsiya etilib, «Ijod» fondi tomonidan
moliyalashtirilgan.*

Saidova, Bibi Robia

S21 Parvoz: hikoyalar/B.R.Saidova. – Toshkent:

«ADIB», 2014. – 96 b.

ISBN 978-9943-4277-1-6

UOK: 821.512.133-1

KBK: 84(O')7

ISBN 978-9943-4277-1-6

© B.Saidova, 2014

© «ADIB» nashriyoti, 2014

MO‘JAZ MO‘JIZA

“Birinchi kitobim” ruknida chop etilayotgan kitoblar yurtimiz adabiy hayotida muhim voqelikka aylandi. Ayni shu xayrli amal tufayli o‘nlab yosh qalamkashlarning to‘plamlari keng o‘quvchilar ommasiga yetib bordi va, tabiiyki, bugun o‘z aks-sadosini berayotir.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan har yili o‘tkazib kelinayotgan respublika yosh ijodkorlar seminarida o‘nlab yangi nomlar, yosh iste’dodlar kashf etilmoqda. She’riyat, nasr, dramaturgiya, publisistika, bolalar adabiyoti, adabiyotshunoslik kabi qator janrlarda muvaffaqiyat bilan qalam tebratayotgan yosh ijodkorlarning eng yaxshi asarlari muttasil nashr etib kelinmoqda. Jumladan, 2013-yilda Do‘rmon ijod uyida bo‘lib o‘tgan yosh ijodkorlar seminarida ham

ana shunday qo'lyozmalar saralab olindi va ular jajji kitoblar – mo'jaz mo'jizalar sifatida siz muhtaram kitobxonlar hukmiga havola qilinmoqda.

Bu ruknda nashr etilayotgan kitoblar adabiyotga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlikning samarasidir. O'ylaymizki, yaratilgan bu imkoniyatlar yosh ijodkorlarning baland parvozlariga zamin vazifasini o'taydi.

MARV TUTI

Qo'shni hovlida Lutfulla amaki yolg'iz o'zi yashar edi. Bu chorsidekkina hovlida necha asr bilan yuzlashganini hech kim bilmaydigan bahaybat, g'adir-budur tanasiga kishining qulochi yetmaydigan tut daraxti bor. Tut ham Lutfulla amakiga o'xshab yolg'iz. Ammo tutning shoxlaridan turfa qushlar arimasdi. Qizig'i shundaki, shaharda kamdan-kam bo'ladigan qizilishton, jimitdekkina jib-lajibon, naxshak, fotmachumchuq, ko'kqarg'a-yu zarg'aldoqlarni ilk bor shu tut shoxlarida ko'rganmiz. Biz ularni o'zimizcha tutning osmondagi bolalari, derdik, ko'chamizning bolalarini esa, tutning yerdagi bolalari, deb atardik.

Mahalladagi ellik-oltmish yoshli amakilar bolaliklari shu tutning ustida o'tganligini aytishadi. Xullas, tut faqat Lutfulla amakiga emas, biz uchun ham buvimizgami, bobomizgami aylanib qolgan edi. Buning boshqa sababi ham bor. Tut pishig'i boshlandi deguncha, har kuni tong-la eshigimizning zulfi taraqlaydi. Chiqsam, Lutfulla amaki turgan bo'ladi. "Qani tutga chiqinglar. Akangni, singlingni ham ayt, kattaroq idish olvolinglar", – deydi-da, xastaligi tufaylimi, asta-sekin qadam tashlab, iziga

qaytadi. Borsak, kun bo‘yi to‘kilgan tut xuddi oppoq gilam to‘shalganday hovli bilan bitta bo‘lib yotardi. Biz bu “gilam”ni bosmasdan, bir chetdan “yig‘ib” borardik. Har zamonda sevinganidanmi, hazillashib, boshimiz, yelkamiz osha marvaridlarini tashlardi. Lutfulla amaki esa hovlining bir kunjagiga kursi qo‘yib o‘tirar va biz bilan suhbatlashardi. Bilardik: keksa tut ham qilt etmay gurungimizni eshitar, quvonganidan shoxlari navozish ila shitirlardi. Ahyon-ahyon bo‘g‘joma tutib, tut qo‘qardik. Buning gashti o‘zgacha bo‘lardi: bog‘jomaga bamisoli ko‘kdan kumush yulduzlar duv-duv to‘kilayotganga o‘xshardi... Tergan tutimizdan Lutfulla amakiga bersak: “Yo‘q, men tut ostidaman-ku”, derdi. Baribir tutga chosh bo‘lgan bir tovoqni yonlariga qo‘yib ketardik.

Kunlar shu tariqa suvday oqib o‘tdi. Bir kuni Lutfulla amakining ukalari oilasi bilan hovliga ko‘chib kelishdi. Ular kelishgach, bizni tut terishga kamdan-kam chorlashadigan bo‘lishdi. Bora-bora chaqirmay ham qo‘yishdi. Bilsak, Lutfulla amakining tobi qochib, ahvoli og‘irlashib qolibdi. Havo aynib turgan kuni maktabga oshiqib ketayotsam, ko‘chada tumonat odam sukutga cho‘mib, xomush o‘tiribdi. Ochiq ko‘cha eshigidan hovlida turgan, ustiga oq mato yopilgan tobutni ko‘rib, yuragim orqaga tortib ketdi: «Amaki vafot etibdi-da...»

Singlim yig‘lab yubordi, onamning ham ko‘zlarida yosh qalqdi. Nechog‘lik yig‘lasak ham behudaligini bilar edik. Amakining ukalari bu hovliga to‘la ega bo‘lib olishdi. Tut terishga yo‘qlash hech kimning xayoliga kelmasdi. Biz esa azim tut daraxtini, uning marvarid mevalarini terishni sog‘inardik. Balki u ham bizni qo‘msayotgandir deb o‘ylardim. Qadrdon tutning sollangan chayir shoxlari bilan ko‘chadan turib gaplashardik. Shoxlardagi qushlar chug‘urlashib, go‘yo bizni chorlashardi. Biz esa borolmas edik.

Yakshanba kuni sinfdoshimni yo‘qlab ko‘chaga chiqsam, xudo rahmatli amakining hovli eshigi ro‘parasida bir to‘p bola g‘uj bo‘lib turibdi. Qiziqib: “Bir ko‘ray-chi, nima gap ekan”, – deb bolalarning orasidan o‘tib, hovliga nigohim tushgan zahoti dong qotib qoldim. Qadrdon, munis tutimizning keksa tanasi yarmigacha chopilgan. Yon-atrofga payrahalari sochilib ketgan. Arralab tashlangan shoxlari esa uyum-uyum... Bir to‘da odam tutning tanasiga arqon bog‘lab: “ha, huv”, – deya zo‘r berib tortqilashardi. Bu hol qandaydir mudhish qatl manzarasini eslatardi. Ular nuqul kulishar, qilayotgan ishlaridan negadir mamnun edilar.

Yuragim gupullab urar, ko‘zlarimdan yosh tinmay oqar, “To‘xtanglar, berahmlar” deb baqirgim kelar, lekin ovozim chiqmasdi. Ularning qo‘llariga

yopishib, arqonlarini uzib tashlasam, deyman-u, ammo bunga majolim yetmasdi. Va nihoyat: “Lutfulla amaking ruhini qaqshatmanglar, axir, bu tut sizlarga meros-ku”, – deb yig‘i aralash bo‘g‘ilib pichirladim. Lekin hech kimdan sado chiqmadi. Men bag‘ritoshlardan yuz o‘girib, uyga kirib ketayotganimda, tutning ulkan shoxlarining qarsilaganini eshitdim. U gursillab yerga qulaganda, yer bir sira titrab ketdi. Bu tutning eng so‘nggi so‘zi, ya‘ni “Alvido”si edi.

EY, INS...

Ona ko‘ngliga kuz bilan birga qo‘rquv, ko‘p-dan kutilgan bir xavotir ham kirib keldi. Kuz asta odimlay boshladi. Vahimaga tushgan Ona sochlari parishon holda qo‘llarini u yoq, bu yoqqa silkitar, kuz qadami yetmas joylarga qochib ketishi uchun oyog‘i yo‘qligidan o‘ksinardi. Bolalari esa bir-birlari bilan o‘ynashar, hayotning go‘zalligi haqida she‘rlar aytib mushoira qilishar, do‘stlari – sozanda shamolning bahor va yoznikiga o‘xshamagan yangi kuylaridan zavqlanib raqsga tushishar, hamsuhbatlari bo‘lmish qushlarning qo‘shig‘iga jo‘r bo‘lishar, endi kamdan-kam ko‘rina boshlagan bobo quyoshga erkanlanishardi. Ammo tabiat qonunini o‘rgatishga ulgurmagan Ona esa...

Kunlar birin-sirin o‘tib borardi. Yaproqlar Onaning dod-voyiga qaramay savdogar Kuzning do‘konidan sotib olgan sariq rangdagi liboslarini birbirlariga ko‘z-ko‘z qilishdan charchashmasdi. Ona har kechqurun bolalariga erki o‘z qo‘lida bo‘lgan, istasa dunyoning xohlagan joyiga bora oladigan Insonlar haqida uzundan-uzun ertaklar aytardi. Sarguzashtlarining ko‘pligi va g‘aroyibli “Ming bir kecha”lardan oshadigan bu ertaklarni barglar berilib tinglashar, Inson bilan bir bora bo‘lsa-da suhbatlashishni istashardi. Ammo Ona-daraxt hikoya qilib berayotganlari ertak ekanligini aytish yodidan ko‘tarilgandi.

Nihoyat, katta foydaga erishayotgan savdogar Kuz tabiatning butun go‘zalligini sotib olishga erishdi. Bir qaraganda tabiat tillalarga ko‘milgandek ko‘rinardi. Osmondagi bosqinchi bulutlar oy-u quyoshning yuziga qora hijob tortishdi. Ona-daraxt esa qo‘llari bo‘lmish shoxlarini yuqoriga ko‘targancha, Yaratgandan bolalarini erta xazonga aylanishidan panoh so‘rab, tun-u kun iltijo qilardi.

Ammo kundan-kunga sarg‘ayib, holsizlanayotgan barglar endi faqatgina insonlar bilan yaqindan uchrashishni, ularga qushlardan eshitgan dostonlarini o‘qib berishni, onalari aytib bergan ertaklar haqida suhbatlashishni orzu qilishardi. Sababi, ertakdagi insonlar ham buni astoydil istashlariga ishonchlari komil edi.

Nihoyat kunlarning birida barglar o'zaro maslahatlashib, to'ng'ichlari orqali o'z istaklarini Onalariga bildirishga jazm qilishdi:

– Mana, shuncha kunlardan beri bizni sovuq shamollardan, shafqatsiz jalalardan, quyoshning kuchli qahridan, qushlarning o'tkir tumshuqlaridan asrab keldingiz. Ammo biz noshud farzandlaringiz, faryodlaringizga qaramay Kuzning tillarang liboslarini sotib olishdan o'zimizni tiyolmadik. Ana shu nafsimiz oqibatida tomirimizdan kuch keta boshladi. Shu sababli bizga, ehtimol, so'nggi orzumizni amalga oshirishga, ya'ni tunlari bedor bo'lib aytib beradigan ertagingizdagi o'sha Inson bilan uchrashishga ahd qildik. Iltimos, onajon, bizga yordam bering. Oq fotihangiz kerak.

Ona farzandidan bu gaplarni eshitarkan, “dod” deya hayqirib yubordi. Bu nidodan osmon-u yer larzaga keldi. Uning aks sadosi qish-u bahor, yoz-gacha yetib borib, ularni ham titratib yubordi. Hatto Onaning bunday ohini eshitgan Kuz ham qilgan ishlaridan qattiq afsuslandi. Shamol esa daraxt farzandlarining muddaosini eshitgach, “uv” tortganча bulutlarga yetkazdi, qora bulutlar ham barglarning bu istagidan dahshatga tushib, duduv yoshlarini to'ka boshladi. Shunda Ona og'ir horg'inlik bilan so'z boshladi:

– Dilbandim, sizlar tunlari tinglaydiganingiz aslida ertak ekanligini aytishdan cho‘chirdim. Ha, shu kungacha siz yaxshilikka yetaklaydi deb hisoblaydiganlaringiz armonga aylangan orzulardan to‘qilgan ertak edi. Hech qachon o‘z haqiqatini topmagan ertak! Bu fikringizdan qaytinglar. Ertak boshqa, hayot boshqa!

– Tushuna olmayapman, Onajon, armon nima degani? Bu haqda hech aytmagan ekansiz. Ha, mayli, nima bo‘lganda ham, ana shu istagimiz uchun yo‘l ochib bering. Hech bo‘lmasa faqat menga ruxsat bering. Ular bilan bir bora suhbatlashishimga izn bering, jon Ona! Axir siz ertaklaringizda Insonning Alloh tomonidan yaratilgan oliy maxluqot ekanligini ko‘p marotaba uqtirardingiz-ku! Nahotki, siz aytishga cho‘chiganingiz – armon shu bo‘lsa?! Nahotki, Onajon?!

Ona-daraxt bu savolga hech qachon javob bera olmasligini anglagan holda uzoq sukut qildi. Ana shu sukut bolalarining bir vaqtlar kurtaklaganiyu gulday ochilgani, yashillikda yashnagani-yu hozirgi so‘lg‘in qiyofalarini Onaning ko‘z oldidan bir-bir o‘tkaza boshladi. Va nihoyat, farzandlariga ayta olmagan iztiroblari ichidan o‘tli bir “oh” bo‘lib otilib chiqdi va ertaga Kunduz mehmonga kelganida ruxsat berishini aytdi.

To'ng'ich barg inilariga, singillariga go'yoki quvonchli bo'lgan xabarni yetkazdi. Ularning Insonga bo'lgan qiziqish va muhabbatlari cheksiz edi.

Mana, o'sha kun ham yetib keldi. Butun borliq ro'y berajak mo'jizani yo falokatni kuzatish uchun ko'zga aylandi va vaqtni to'xtatib qo'ydi. Mana, to'ng'ich barg ukalari, singillari bilan vido-lasharkan, dedi:

– Men Insonga albatta sizlar haqingizda, mehribon Onam haqida aytib beraman. U bilan uzoq suhbatlashaman. So'ng sizlar bilan uni tanishtirish uchun bu yerga olib kelaman. Shunda unga o'z she'rlarimizni, dostonlarimizni, qo'shiqlarimizni va ular haqidagi ertagimizni aytib beramiz. Keyin u ham bizga biz haqimizdagi o'z ertagini aytib beradi. Meni albatta kutinglar, qadrdonlarim, siz ham, mushtiparim, faqat mendan ranjimang! Diy-dorlashguncha!

Ona-daraxt ko'zlarini mahkam yumgancha, duo qilishdan aslo tolmaydigan qo'llaridan to'ng'ich farzandini asta qo'yvora boshladi. Yuragi hapriqayotgan barg bir silkinib onasining qo'lidan yulqindi-yu pastga qarab ohista parvoz etdi. Shu payt Ona-daraxt qo'llarini ko'kka yetgudek ko'targanicha, silkina-silkina ko'zida yosh bilan Yaratganga yolvora boshladi:

– Yo Qodir Egam, so‘nggi iltijomni qabul qil, o‘tinaman, bir onaning so‘nggi tilagini ijobat ayla! To‘ng‘ichimning endigi ahvolini bolalarimga ko‘rsatma, yolvoraman. Ular akasining qay ko‘yga tushishini ko‘rishmasin, o‘tinaman, yo Rabbim!

Ona-daraxtning iltijolari tugar-tugamas, qalin tuman suzib keldi-yu daraxt bolalarini o‘z bag‘riga oldi. Natijada hayajon bilan kuzatib turgan barglarning ko‘ziga yerdagi akalari ko‘rinmay qoldi. Faqatgina Ona-daraxt yuragini teshib o‘tayotgan alamli yig‘i bilan hozirgina farzandi turgan yerdan ko‘z uzmasdi. Borliq esa hamon jim.

Yerga yengilgina qo‘ngan barg intizorlik va quvonchli bir hayajon bilan ertakdagi o‘sha Insonni kuta boshladi. Atrof esa nafas chiqarsa kimdir sezib qoladigandek sukutda. Mana, nihoyat asta odimlab kelayotgan qadam tovushlari. Uzoqdan bir qora sharpa g‘ira-shira ko‘zga tashlanyapti. To‘ng‘ich bargga butun borliqda faqatgina yuragining tobora qattiqroq urayotgani yangrayotgandek tuyulardi. Ona-daraxtning yuragi ham yerdagi farzandining yuragi bilan bir xil tarzda urardi: duk-duk, duk-duk, duk-duk. Sharpa yaqqolroq namoyon bo‘la boshladi. Duuuk-duuuk-duuuk. Ana, Inson qiyofasi bir-ikki qadamdan so‘ng bargning yonida bo‘ladi. Suhbatni boshlashga hozirlandi barg:

– Salom, ey Ins...

Gapi oxiriga yetar-yetmas barcha orzularining timsoliga aylangan o'sha Inson uni oyoqlari bilan ezg'ilab o'tib ketdi. Orqasidan qurigan barglarning qisirlashiga ishtiyoqmand bo'lgan yana biri kelib, uni ikki-uch marotaba bosgancha yo'lida davom etdi. Yerdan ezilib yotgan Ona-daraxtning to'ng'ich farzandi bor madorini to'plab so'ngi so'zini aytdi:

– Onajon, men, albatta, qaytaman, ha, albatta qaytaman, faqat ertakdagi o'sha Insonga aylanib...

Akalarining azobli ovozi eshitib, onalaridan ruxsat so'rashni ham unutganча yaproqlar yerga duvva yopirilishdi. Shu payt uzoqdan qo'llariga uzun supurgi ko'targan yana ikki qora sharpa ko'rindi. Ular yetib kelganda yaproqlar savol berishdi:

– Salom, ey Inson, akamizni nega...

Ularning ovozi nogahon taralgan "shirt-shirt" degan ovozlarni bosib ketdi, aka-ukalar bir-birlariga ostin-ustun bo'lib qalashib qolishdi va Ona-daraxt ostida katta uyum paydo bo'ldi. So'ngra oppoq va achchiq tutun yuqoriga o'rladi va Onaning tanini motam libosiday qoplab oldi.

Bir oz muddat o'tgach, voqea sodir bo'lgan joydan uzoqlashayotgan boyagi Insonlar dahshatli gursillagan tovushdan seskanib ketishdi.

KUZGI TUFLI

Shahar g'ala-g'ovuridan o'zini chetga olgan bu do'koncha eski bir maktab yonida joylashgan edi. Atrofi esa egizaklarga o'xshash ko'p qavatli uylar bilan gavjum. Ushbu do'konni ijaraga olganidan beri ayol boshi bilan tebratayotgan ro'zg'orning g'am-tashvish eshiklari kamroq ochilib-yopila boshladi.

To'rt faslga moslangan poyabzallar bilan to'ldirilgan do'konning doimiy yordamchilari – soniyalar, soatlar, kunlar – bozorga borishga erinadigan, zarurat tug'ilgandagina oyoq kiyim esiga tushib qoladigan xaridorlarni tinimsiz yetaklab kelardi. Shunga qaramay, do'koncha daromadidan ko'ra kirib chiquvchilarining ko'pligi bilan maqtanishi mumkin edi, xolos. Vaqtning xaridor chorlashdan tinkasi qurib qolgan paytlarda ayol qo'liga kitob olardi. Eskirib, titig'i chiqib ketgan bu kitob bilan u ancha yillardan buyon suhbatlashardi. Suhbatlari poyoniga yetgach, yana qayta boshlashar, bu esa ayolga bir hayotni takror-takror yashayotganga o'xshab tuyulardi. Shunday bo'lsa-da, u zerikmas, hatto ko'nikib ketgan edi.

Har kuni do'kon og'zidan butun orzulari amalga oshishiga ishonadigan bolakaylar, horg'in va xotirjam

yuzlariga o'tmishlari bitilgan keksalar, umrdan o'z ulushlarini olib qolish ilinjida yurgan erkag-u ayollar hayot tasmasi kabi o'tib turardi. Do'kon og'zi go'yo ekran-u, ayol so'zsiz filmni tomosha qilayotgandek tuyular va o'zining bu tasavvuridan miyig'ida kulib qo'yardi.

Ayolga eng zavq bag'ishlaydigan narsa – yonginasidagi maktab qo'ng'irog'ining jarangi va do'kon oldidan goh bir-birini quvlab, goh sho'x kulgulari bilan yer-u osmonni to'ldirib o'tadigan o'quvchilarni tomosha qilish edi. Ularni ko'rgach, xotira kitobidagi qariyb unutilayozgan qaysidir sahifalar ochilardi...

Mana, do'kon yonidan qirq yoshlar chamasidagi qotmadan kelgan bir ayol yetti-sakkiz yoshlardagi o'g'lini yetaklaganicha o'tib boryapti. Nogahon ayol chaqin urgandek birdan to'xtadi. Nigohini do'kon ichiga yo'lladi. So'ng yana ko'zlarini yerga tikkancha bir-ikki qadam tashladi. Yana to'xtadi. Go'yoki kimdir uni goh oldinga, goh orqaga tort-qilardi. Axiyri do'kon eshigiga yaqinlashdi. Bo'sag'ada turarkan, ijozat so'ragan nigoh bilan ichkariga qaradi. Sotuvchining: "Assalomu alaykum, marhamat, kiringlar, bemalol o'zingizga yoqqanini tanlab olaveringlar", degan so'zlaridan keyin do'kon ichiga qadam qo'ydi. Bolakay esa bunday antiqa joyga kelib qolganiga quvonib, onasining qo'lidan

yulqinishga urinardi. Ayol kuzgi poyabzallarni o'z-gacha bir havas bilan ko'zdan kechira boshladi: mana, yaltiroq charmliligi, yon tasmachalariga rangli toshlar yopishtirilgani, poshnasi balandi, uchi qush tumshug'iday cho'zilgani-yu gul shaklidagi mato bilan bezatilgani. U o'zini muzeydagi qimmatbaho ashyolarni tomosha qilayotgandek tutardi. Do'kon burchagidagi oxirgi saflarda turgan tuflining yoniga kelganda esa, taqqa to'xtadi va bir muddat tikilib qoldi. O'tgan yilgi mavsumdan beri savdosi yurishmay kelayotganidanmi, hech qanday bezaksiz, oddiygina bu tuflining narxi arzonroq edi. Ayol beixtiyor qo'lini uzatdi, ammo nimadandir istihola qildimi, darhol tortib oldi va so'radi:

– Bu... qancha turadi?

Savolni berdi-yu butun vujudi quloqqa aylandi. Sotuvchi aytgan baho juda arzon edi. Ammo narxni eshitgan ayol bexosdan kaftlari orasidagi jajjigina qo'lni qattiq qisib yubordi. Uning soniyalar ichida o'tgan butun iztiroblari ana shu tarzda ifodalangan edi. O'g'li kutilmagan og'riqdan chinqirib yubordi. Ona darhol jajji barmoqchalarni siladi va sotuvchiga xijolatomuz tabassum qilgancha, do'kondan chiqib ketdi. Ana shu daqiqalarda ayolning uringangina ko'ylagiga va oyog'idagi poyabzalning yedirilib ketganiga ko'zi tushib qolgan sotuvchining ko'ngli allanechuk bo'lib ketdi.

Bugun savdo g'ildiragini aylantirishga vaqtning ham qurbi yetmadi. Kichkina qizi shamollagan, do'konni ertaroq yopib uyga jo'nash kerak. Shunday ham qildi.

“Sahar tursang, rizq-nasibang mo'l bo'ladi, ishlaring yurishadi”. Bu gapni onasidan ko'p eshitgan edi. Shuning uchun do'konini bugun odatdagidan juda erta ochdi. So'ngra qora bulutlar kuzatuvi ostida do'koni oldiga suv sepib supurdi. Vaqt xaridor chorlash bilan ovora ekan, u ichkariga kirib, o'sha kitobi bilan suhbatga taraddudlandi. Ammo xonaga bostirib kirgan yerning nam hidi ruhini allaqayoqlarga chorlagandek bo'ldi. Qishlog'idagi tanish manzaralar ko'z oldidan o'ta boshladi. Sotuvchi to'yib-to'yib, chuqur-chuqur nafas oldi-da, ko'chada mudrayotgan hayotning uyg'onishini kutib, ko'zini kitobga tikdi.

Shamol oyog'i kuygan tovuqdek u yoqdan bu yoqqa yugurardi. Kun peshinga yaqinlashgan. Saharda ko'p gap borligini peshma-pesh sotilayotgan mollari tasdiqlab turardi. Mana, hozir ham do'konning ichida ikkita xaridor bor. Sotuvchi ular bilan andarmon bo'layotgan bir vaqtda bahaybat qora mashina savlatiga yarasha ovoz bilan “g'iyq” etib do'kon oldida to'xtadi. Mashinaning orqa eshigidan o'zgacha uslubda tikilgan maktab formasi kiygan o'n to'rt-o'n besh yoshlar chamasidagi qizaloq va old

eshikdan boshidagi kepkasini to'g'rilagancha bashang kiyingan bir kishi tushdi. Ayol ularni do'kon ichiga kirib kelgunlariga qadar kuzatib turdi va shuncha dabdabaga yarashmagan hissiz yuzlariga qarab, ularning suratini chizgan "rassom"ga istara, quvonch ranglari yetmay qolganiga taajjublandi. Go'yoki bunday odamlarning yuziga suv sepib o'ziga keltirish kerakdek tuyulardi. Do'konga kiriboq ota hali tanlanmagan tufli uchun orqa cho'ntagidan zanjirband etilgan qullardek turgan, aslida esa o'zini ham qul qilishga qodir bo'lgan pullarini qo'liga oldi. Qizcha kutilganiday yuqorigi qatorda, alohida mavqe egallagan poyabzallarga ko'z yugurtirdi-yu ham narxi, ham poshnasi boshqalariga qaraganda bir qarich baland bo'lgan tuflini barmoq uchlari bilan ko'rsatib:

– Ana shunisining o'ttiz yettinchisini bering, – dedi.

Sotuvchi talabni bajarishdan oldin beixtiyor qizning oyoqlariga nazar tashladi. Oyog'idagi bejiringina feruza toshli tuflisi qo'lidagi sumkasining rangi bilan bir xil edi. Qiz tanlaganini kiyib ko'rar ekan, yuzidan qisqa tabassum yugurib o'tib ketdi:

– Buni kecha olib bergan marjonigiz bilan ham kiysam bo'larkan. O, mana bunisini ham olaman. Uyimiz yonidagi do'konda shunga mos sharf ham ko'rgandim.

Ota poyabzallarning narxini soʻrab, sotuvchiga pul tutqazdi...

Qora bulut, nihoyat, ichidagi dardlarini yordi. Yomgʻir sharros quyib yubordi. Ana, yana sotuvchiga tanish boʻlgan maktab qoʻngʻirogʻi jarangladi. Bugun daromad nisbatan moʻl boʻlganini oʻylab oʻtirar ekan, eshikdan tanish ikki qiyofa koʻrindi. Bolasini qoʻlidan ushlaganicha oʻsha ayol kirib keldi va peshonasidan sizib oqayotgan tomchilarni artarkan, ostonadan bir qadam oʻtib toʻxtadi. Sotuvchi darhol ularni tanib, xushmuomalalik bilan ichkariroqqa taklif qildi. Ayol yuzida qotib qolgan nim tabassum bilan oʻgʻlini yetaklaganicha qil koʻprikdan oʻtayotgandek ehtiyotlik bilan yurib burchakka bordi va oʻsha ilgari koʻrib ketgan tuflisiga bir muddat tikilib turdi. Oʻgʻli esa, koʻchada bulut toʻkkan yoshlar yoqinqiramagan shekilli, jimgina turar, xarxasha qilmasdi. Onasi koʻzini yerdan uzmagani koʻyi tuflining narxini yana soʻradi. Bola sotuvchi ogʻzidan yana oʻsha narx yangragunga qadar boʻlgan muddatda onasining yurak tovushini eshitdi. Sotuvchi aybdorona ohangda oʻsha raqamlarni qaytararkan, nima uchundir xijolat tortdi. Shunda farzand nigohlarini onasining oyoqlariga qadadi. Bola onasining shuncha yillardan beri kiyilaverib orqasi ezilib ketgan, old va yonlaridagi baʼzi joylarning choklari soʻkilgan poyabzalini koʻrib,

goh validasi yuziga, goh yerga tikilardi, tikilgani sayin ko'zlaridagi mung quyushlardi. Va shu lahzalarda bolaning bolaligi yomg'irga ham qaramasdan hech qachon qaytmaydigan bo'lib do'kondan chiqib ketdi.

Ayol o'g'lining ruhiyatida nimadir chil-chil bo'lganini onalik qalbi bilan sezdi-yu sotuvchiga minnatdorchilik bildirib, tez-tez qadamlar bilan do'konni tark etdi. Sotuvchi yuragida esa tuyg'ularni donday tortqilayotgan saf-saf chumolilar g'imirlardi.

Do'kon oldiga bugun ham farrosh bulutlar saharlab suv sepgan. Ichkarida esa sotuvchi ayol qo'lidagi kitobning sahifasini ochgan ko'yi bir nuqtadan ko'zini uzmay xayolga tolgan.

– Assalomu alaykum, horma endi!

Noxos ovozdan ayol seskanib ketdi. Qarasa, erining janozasidan beri diydorini ko'rmagan, aniqrog'i, diydorini ko'rsatmagan tog'asi. Ayol quvonganidan yugurib tog'asiga peshvoz chiqdi. Tog'a esa butun sog'inchini ohistagina qo'l uzatish bilan izhor ayladi. Ancha davom etgan salom-alikdan so'ng tog'asi katta qornini ehtiyotlab stulga o'tirarkan, asl muddaoga ko'chdi:

– Balli, ayol boshing bilan shularni eplayapsan. Bungacha qanday qiynalغانingni eshitib, rosa achinardim. Ko'chib ketganingdan so'ng, mana, uzoq-yaqindan surishtirib do'koningni topdim.

Ko'rdingmi, boy bo'lish – qarindoshlarni topishning oson yo'li, ularning o'zlari seni izlab kelishadi. Mana shunday boyishda davom etsang, boshqa qarindoshlaringniyam ko'rasan, – miyig'ida kuldi tog'a. – Xullas, gap bundog': ko'rib turganingday, kuz kelib, tinmay yomg'ir yog'yapti. Ana bu jonivorni kiyib yurganimga esa ikki yil bo'lyapti, – u oyog'idagi tufliga ishora qildi. – Shunga-a-a, bir baquvvatidan, sovug'-u yomg'irga chidaydiganidan topib ber! Pul begona bo'lmasin deyman-da.

Yuragi hapqirgancha turgan jiyan tog'asiga istaganidan ziyodasini topib berdi. Ammo tog'asining ko'zlaridan o'zi istaganini topa olmadi. Qayerlardir, kimlardir, nimalardir haqida so'ragisi, suhbatlashgisi kelar, ammo tili hech bo'ysungisi kelmasdi. Tog'a ancha muddat poyabzalning pishiqligini, loyiq-loyiqmasligini sinagach, tufli solingan qutini qo'ltiqlagancha o'rnidan turdi:

– Mayli, jiyan, ana shunday shijoatni yo'qotma. Lekin, onang rahmatlikni o'zi bo'libsan. Rahmat, ertaga o'g'lim bor-ku, – Toshtemir akang, pulini tashlab ketadi. Bo'пти, yaxshi qol!

Quyuvqina xayrlashgan tog'asi qo'lini silkita-silkita tezda do'kondan yiroqlashdi. Ayol tog'asining orqasidan kuzatar ekan, yomg'irga ham qaramay shoshgancha chilp-chilp etib, ehtimol qaytmas bo'lib ketayotgan oyoqlarga qarab qoldi. Tog'asi chek-

karoqda kutib turgan kulrang mashinaga o'tirdi-yu jo'nab ketdi. Yomg'ir esa boshi egik holda turib qolgan jiyanni allanimalar deb ovuta boshladi. Ayol yuzidagi yomg'ir tomchilarimi, ko'z yoshlarimi, farqlay olmagancha do'konga qaytdi.

Bugun ertalabdan beri tog'asining kechagi gaplarini hazm qilolmay og'rinib yurdi. Xaridorlar bilan gaplari ham o'lda-jo'lda. Kecha berilgan va'da tufayli bu kun do'kon odatdagidan yanada ertaroq ochilgan. Kirib keladigan har bir xaridordan tanishlik belgisini qidiraverib ko'zlari ham toliqdi. Ana shu charchoqlarni bir zungma bo'lsa-da haydab soladigan maktab qo'ng'irog'i chalindi. Mana, eshik oldidan beg'am bolalik o'tib-qaytishni boshladi. Sotuvchi zavqlanib goh ularni kuzatar, goh savdosiga sho'ng'irdi. Do'konga ozg'in yuzlariga kuzning rangi singib ketgan bir bola kirdi-da, iymanibgina oxirgi qatorlardan birida turgan poyafzal tomon yura boshladi. Sotuvchi tanidi, axir bu o'sha bola-ku! Faqat yonida onasi yo'q. O'zi kelibdi. Bola birov eshitib qolishidan cho'chiganday ohistagina:

– Bu nech pul? – dedi.

Ana shu bir og'iz gap sotuvchining shilingan yuragiga tuz sepdidi. Sotuvchi mayin ohangda o'sha arzon va sovuq raqamni takrorladi. Shunchaki tomoshaga kirgan ayollar o'g'il bolaning ayol po-

yabzalini soʻraganiga eshitilar-eshitilmas kulib qoʻyishdi. Bola tezda orqasiga oʻgirildi-da, chiqib ketdi. Sotuvchi ayollarga qadalgan nafratomuz nigohlari bilan ularni doʻkonni tark etishga majbur qildi. Kitobni qoʻliga olgisi kelmadi, xaridorlar bezovta qilmaguncha oʻzi bilan oʻzi suhbat qurdi. Kechgacha koʻzlari toʻrt boʻlib togʻavachchasini kutdi. Yana adashib ketmasin deya har zamonda tashqariga chiqib, koʻchaning boshi va oxirini nigohi bilan kezib chiqdi. Soʻngra oʻzini oʻzi koyib qoʻydi: “Axir togʻam-ku, tavba qildim, nima xayollarga boryapman-a. Ehtimol, bugun ishlari chiqib qolgandir”. Uyiga qanday yetib borishini oʻylamay, bugun doʻkonni juda kech yopti. Kechasi: “Bugun tushlikka ikkita somsa olib kelgani birrov chiqqandim. Balki oʻsha payt kelishgandir”, degan oʻylar bilan uxlamay chiqdi.

Doʻkon ertasiga kechagidan-da erta ochildi. Baʼzan yomgʻirning shitirlab yogʻishi qadam tovushlariga oʻxshar va sotuvchining umidvor koʻzlari boʻsagʻaga yugurardi. Peshin vaqtiga yaqinlashyaptiki, darak yoʻq. Kirib kelayotgan har xaridorga “Ehtimol qoʻshnilaridan berib yuborgandir, ehtimol nabiralaridan, ehtimol...” deya ilhaq termulardi. Tinchlanish uchun qoʻliga kitobni ham olib koʻrdi. Ana, yana qadam tovushlari eshitilyapti. Koʻzini

kitobdan oldi. Yuragi esa dukullagancha eshikka yugurdi. Eshikda kamzuli ostidan qavat-qavat ko‘ylak kiygan, qo‘lida eski bozorxalta ko‘tarib olgan, ko‘zlari o‘ynagan lo‘li qiz paydo bo‘ldi. Sotuvchining hafsalasi pir bo‘ldi-yu: “Ehtimol, tog‘avachchamning kirishga vaqti bo‘lmay shu lo‘lidan iltimos qilgandir”, deb o‘yladiy-u, o‘zining xayolidan uyalib ketdi. Lo‘li qiz bamaylixotir kirib, oyoq kiyimlarga ko‘z yugurtirib chiqdi. So‘ng kamzulining cho‘ntagiga qo‘l soldi. Sotuvchi ayolning quvonchdan yuzi porladi: “Aytdim-ku. Ana, hozir pulni chiqaradi”. Lo‘li qiz ancha keng tikilgan cho‘ntakni kavlay-kavlay kichkina idishdagi nosni olib, tilining tagiga tashladi. Ayolning ustiga muzday suv sepilganday bo‘ldi. Lo‘li yaqinginada ota-qiz haybatli mashinada kelib olib ketgan tuflini ko‘rsatib, miyig‘ida kuldi va dedi:

– Apa, mana buniz chan pul?

Sotuvchi o‘sha qimmat narxni aytdi.

– Ebe, apa, nima deyopsiz? Manga munay shutka qimang, xaymi? Oxi, mandayam yorilaykon yurak bor. Xedoye tavba. Ha, apa, manga ber fikr kelli. Man zo‘r fol ochaman. Maniki mana bunizdanam qemmat tursayam, mayli, folemni almashaman. Folem uchun manga nimala berishmagan deysiz. Zarur bo‘gane uchun roze bo‘lomman. Kaftezni bering,

sizga kim essiq-sovuq qegan, kim erizni boshini aylantirgan, hammasini aytaman. Tavba, nemaga qo‘rqopsiz, ibi, qo‘rqmang. Uzating, axe qo‘lizni!

Ayolning ko‘ngliga hozir nafaqat lo‘li qizning qiyofasi, hatto uning ovozi ham sig‘masdi. Avvalambor, eri avtohalokatda vafot etganiga salkam besh yil bo‘lgan, buning ustiga, yaqinda tog‘asidan og‘zi kuygan bo‘lsa. Fol uchun yana bitta tuflini berib yuborarmish. Odatdagi muloyimlik bilan lo‘li qizga:

– Singlim, hech qanday fol-mol ochtirmayman. Ularni esa, xafa bo‘lmang-u, faqat pulga sotaman. Meniyam tirikchiligim shu-da, – dedi.

Lo‘li qiz:

– Ba Xudo! Birechidan, folemni mol dema, xaymi, ikkenchidan, ochtirmasang ochterma. Og‘zemdaginiyam zahar qilling, – deya tashqariga nosini tufladi va: – Shuneyam bil – o‘ylab yurgan narsang bo‘maydi, xayme, hali mani aytti deysan. Molmish-a?! Xedo osen, tavba! – degan cha jahl bilan do‘konni tark etdi.

Lo‘lining oxirgi gapidan so‘ng ayolning umid torlari birin-ketin uzila boshladi. Endi mol egasiga nima deydi? “Ehtimol kelishar. Yo‘q. Lo‘li bo‘lmaydi dedi-ku. Xudoyim, o‘zing yordam ber!”. Stuliga ohista cho‘kib, boshini kaftlari orasiga oldi. Shu payt bir bola ichkariga asta mo‘raladi-da hech kim yo‘qligiga

ishonch hosil qilgach, sekin kirib keldi. Ayol boshini ko'tardi. Yana ko'ksining qayeridir achishdi. Bola sotuvchiga salom berib, o'sha tuflining qarshisiga borib to'xtadi. Anchagacha tikilib turdi-yu chiqib ketdi. Ikki tomchi yosh ayolning yuzini yuvib tusha boshladi.

Bugun quyosh hamma joyni birrov nazorat qilgach, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Ayolning yuziga ma'yuslik bilinar-bilinmas soya solgan bo'lsa-da, uyqusi kechagidan yaxshi bo'lganligi sezilib turardi. U axiyri shu qarorga kelgandi: "Nima bo'lganda ham o'z tog'am-ku. Pulini bergan taqdirda ham olmasligim kerak edi. Axir shuncha yillardan beri ko'rishmagan bo'lsak. E, pul aziz bo'ptimi". Odatdagiday odamlarning kir-chiqi bilan kun peshindan og'di. Mana, yana o'sha bola. U hech kim yo'q paytni poylab do'konga kirdi-da, tanish tuflining qoshiga borib turdi. Sotuvchi ayol darhol tilga kirdi:

– O'g'lim, onang yaxshimi, ko'rinmaydi? Nega u seni maktabdan olib ketmayapti?

Bola ko'zini yerdan uzmagani ko'yi dedi:

– Yo'lni o'zim topib bora oladigan bo'ldim.

Shu vaqt do'konga qotmadan kelgan, elliklardagi bir erkak kirib keldi va oyoq kiyimlarni ko'zdan kechira boshladi. Bola boshqa hech narsa demoqchimasdi-yu, beixtiyor yana o'sha savolni takrorladi:

– Bu necha pul?

Boyagi erkak bu savolni eshitib bolaning yoniga asta yaqinlashdi va uning boshiga yengilgina urib qo'yib:

– O' jo'ja, xo'roz bo'l! Ayollarning tuflisini boshingga urasanmi, ahmoq! – dedi.

Bu gapdan so'ng bolaning qulog'i, keyin butun yuzi tarsaki yeganday qizarib ketdi. Do'kondan otilib chiqdi. Ayol g'azab to'la nigohlarini kishiga nayzadek qadadi:

– Bolagayam shunday deydimi? Chiqing bu yerdan, sizga narsa sotmayman!

Hayratdan ko'zlari baqraygan erkak do'konni tark etdi. Ayol kechagi lo'li qizning aytgan gaplarini yana bir esladi-da, bugun do'konini ertaroq yopishga ahd qildi. Tog'asi bilan izsiz ketgan tuflining narxini qoplash uchun kitob javonini sotish maqsadida uyiga yo'l oldi.

Ayol bugun ancha xotirjam ko'rinadi. Qo'lida o'sha kitob. Suhbat davom etmoqda. Vaqt yakkam-dukkan xaridorlarni erinchoqlik bilan boshlab kelardi. Ona jajji bolasining "ona" deyishiga ilhaq bo'lgandek, ayol ham bugun nimagadir darslar tugaganidan mujda beruvchi maktab qo'ng'irog'ini intizorlik bilan kutardi. U bugun bolakayning ko'nglini ko'tarish, qo'lidagi kitobdan rivoyatlar aytib berish uchun astoydil hozirlik ko'rgan. Mana, kutilgan

qo'ng'iroq ham chalindi, ammo kutilayotgan insondan darak yo'q. Soatlar kechgacha "Ana kelar, mana kelar" deya sotuvchini ovutib o'tirishdi. Nihoyat, hech narsa olmaydigan so'nggi xaridor – tun do'kon ostonasiga yaqinlasha boshladi.

Yana sahardan do'kon eshiklari ochilgan. Sotuvchi ayol bo'sag'ada turib, tabiatning ilohiy iforidan to'yib-to'yib, chuqur-chuqur nafas oldi. Kecha shamollab yotgan qizining ancha tetiklashib, yuziga qizillik yugurganidan sevingandi. Ana shu pallada sotuvchining xayoliga bugundan boshlab daromadlaridan oz-moz jamg'arib yurish fikri keldi. Ko'zlari ancha-muncha xaridorlarni kutib olib, kuzatdi. Tush vaqti ham bo'ldi. Kutilayotgan qo'ng'iroq ham chalindi. Mana, nihoyat, bolaning avvaliga pastakkina qaddi, keyin o'zi ko'rindi. Bola hech kimga, hech narsaga qaramasdan do'konga shiddat bilan kirib kelib, onasi oldin so'ragan o'sha poyabzalning oldiga bordi. Uni haliyam o'sha joyda turganiga amin bo'lgach, yana o'sha shiddat bilan do'kondan chiqib ketdi. Sotuvchi og'iz juftlashga ham ulgurmadi. Bu kun ham odatdagiday kitobning ahyon-ahyonda qo'lga olinishi, oldi-sotdi bilan o'z yakuniga yetdi.

Maktab qo'ng'irog'i yana chalindi. Faqat bugun bola kutilganidan kechroq do'konga kirib keldi.

Kechagi vajohatini esa ko'chaga tashlab kelganday. Sotuvchi ayol uni mehribonlik bilan kutib oldi. Bola iymanibgina yana o'sha tuflining narxini so'radi. Bu safar sotuvchi savolga javob bermay: "Sening onang dunyodagi eng yaxshi ayol. Sen katta bo'lsang katta o'qishlarda o'qiysan, onangni mashinada olib yurasan, men ishonaman", dedi. So'ngra rivoyatlar aytib berdi. Bola yuzidagi ma'yuslik tumani asta-sekin tarqala boshladi. U goh berilib, goh xayolga cho'mib jimgina tingladi. Bu yerda uzoq qolib ketganidan uyalibmi, xijolat chekibmi, sotuvchi bilan xayrlashdi. Ertasiga ham, uning ertasiga ham kunlar bolaning o'sha tuflini yo'qlashlari va ana shu zayldagi suhbatlarga guvoh bo'lib o'tdi. Bola suhbatlar asnosida hech narsa demas, ammo yuzida kun sayin quyushib borayotgan ma'yuslik nimalardir haqida so'zlardi.

Bugun havo tund. Yomg'ir yengil sevalamoqda. Sotuvchi ayolning yuragi yana maktab qo'ng'irog'ini eshitishga hozirlik ko'ryapti. O'sha qo'ng'iroq ham chalindi. Mana, hozir kirib keldi. Sotuvchi kitob bilan suhbatlarini ana shu bolakay bilan suhbatlarga almashtirgandi. Oradan chamasi bir soat vaqt o'tdi hamki, undan darak yo'q. Yana bir soat o'tdi. Ayol xayoli ming bir ko'chaga kirib chiqdi. Uning ertani kutishdan boshqa chorasi yo'q edi.

Ertasi ham ayolning xizmatida bo‘lgan soatlar, daqiqalar bolani yetaklab kelishmadi. Bugunning keldi-ketdilari nihoyaladi. Shom tongga taqlid qilishni boshladi. Sotuvchi ayol shu bugun ro‘z-g‘oridan orttirib, yig‘ib borayotgan pullarini sandi. Hartugur mo‘ljalga yetibdi. Ularni bugungi savdodan tushgan barcha pullariga qo‘shib yubordi va sotilgan poyabzallar ro‘yxati yozilgan daftarga bola doim holidan xabar oladigan tuflini ham yozdi. So‘ng uni qutisiga solib, ertaga o‘z egasiga berib yuborish uchun alohida joyga olib qo‘ydi.

Bugun ham, ertasi, indini ham boladan darak bo‘lmadi. Endi sotuvchi ayol maktab qo‘ng‘irog‘ini ham eshitmasdi. Xavotir unga qo‘rqinchli hikoyalar aytib bera boshladi. Nihoyat sabr kosasi bu hikoyalarga to‘ldi. Savdoning qizigan pallasini bo‘lsa-da, ayol do‘konni yopdi-yu maktabga qarab yo‘l oldi. U yerdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan surishtirib, bolaning manzilini topdi. Darhol do‘koniga qaytdi-yu qutini olib yo‘lga tushdi. U yozib olgan manzil sari ketarkan, ixtiyorini bir-biridan o‘zishga harakat qilayotgan qadamlariga tashladi.

Mana, qog‘ozdagi yozuvga binoan uzun ko‘cha bo‘ylab uzoq yurdi va chapga qayrildi. Yana ozgina yurib, ko‘p qavatli uylarning oldidan chiqdi. O‘zini sezdirmay turgan chekkaroqdagi burilishni ko‘rdi.

Ana, kichik yo‘lakcha. Nihoyat topdi. Yo‘lak oxiriga qarab yurarkan, raqami ko‘k bo‘yoq bilan yozilgan pastakkina eshikka ko‘zi tushdi. Uy esa go‘yoki jon taslim qilish arafasida turgan bemor holatida edi. Eshik qo‘ng‘irog‘ini topolmagan ayol ohista taqillatdi. Har taqillatganda eshik og‘riqdan ingrab qo‘yardi. Yog‘ayotgan kuchli yomg‘ir ovozidan taqillashni ichkaridagilar eshitmaganliklariga yo‘ygan sotuvchi ayol xiyol qattiqroq taqillata boshladi. Sado yo‘q. Qo‘lidagi qutini pastga qo‘yib, boshida jiqqa ho‘l bo‘lgan ro‘molini olib bir siqdi-yu yana boshiga o‘rab, eshikni boyagidan kuchliroq va ko‘proq taqillatib turdi. Yana sukunat javob qaytardi. To‘satdan ikki qavatli qo‘shni hovlidan darvozasini qulflash uchun chiqqan kishi bu ayolni ko‘rib:

– Kechirasiz, bu uyda hech kim yo‘q. Ularni yaqinda olib ketishdi, – dedi.

Ayolning yuragi shuv etdi.

– Kimni? – deb so‘radi.

Erkak taajjublangan ohangda dedi:

– Shu, bir bola bilan nogiron kennoyini aytyapman-da. Ularning biror qarindoshimisiz o‘zi?

– Nogiron kelinoyi deganingiz kim? – dedi ayol. Uning katta ochilgan ko‘zlarida hayratomuz savol va xavotirlar qatorlashib turardi.

– Shu uyda turadigan kennoyi-da. Yaqinda

oyoqlari ishlamay shol bo'lib qolgandi. Qo'shnilar shunaqa paytda yordam bermasak, qachon yordam beramiz. Pul yig'ib nogironlar aravachasi olib berdik. Mayli, Xudo yo'lga sadaqa qilib turish kerak-ku...

– Qayoqqa olib ketishdi? – ayolning ovozi zo'rg'a chiqdi.

– Bunisini bilmadim. Qarindoshlari olib ketdi. Uylarigami, nogironlar uyigami...

Erkak yana allanimalarni javrab-javrab ketdi. Sotuvchi ayol hech narsani, erkakning ovozini ham, izzillab yig'layotgan yomg'ir tovushini ham eshitmadi. To'satdan, ko'z oldi qorong'ulashdi, oyoqlari ixtiyoriga bo'ysunmay yerga o'tirib qoldi. Shu ko'yi loy hovuchlagan qo'llarini yerga urib-urib yig'ladi, bolani o'ylab o'ksinib-o'ksinib yig'ladi, ayolni eslab kuyinib-kuyinib yig'ladi. Bu dardga chidolmagan shamol uvillar, sotuvchi ayolni turg'izmoqchi bo'lib kiyimlaridan tortqilardi. Eshik ostida esa qutidan otilib ketgan bir juft yangi tufolini yomg'ir ko'z yoshlari bilan yuvardi...

XIZR TASHLAGAN QANOT

Ko'cha bo'ylab jajji oyoqchalar u yoqdan bu yoqqa yugurishyapti. To'rt yoshlar chamasidagi qizchani undan ikki yosh katta akasi go'yoki

kuchi boricha quvlar, singlisi ham lapanglagancha jon-jahdi bilan qochardi. Ota-onalari chaqirib qolishmaguncha shu zaylda o'ynashardi. Daraxtlar va gullar esa ularning zerikilmas o'yinlarini maroq bilan tomosha qilishar, gohida barglar bu jajji odamchalarning o'yiniga berilib, qarsak chalgancha qo'llab-quvvatlashardi. Ehtimol, hayotning yugur-yugurdan iboratligini o'zlari bil-magan holda isbot qilishmoqchidir.

Ikkalalari ham to'xtab chuqur-chuqur nafas olishdi. Qizcha akasiga qarab kuldi-da, yana yugurib ketdi. Aka o'rnidan turdi-yu bor kuchi bilan singlisini yana quvalay boshladi. Ana, yetay-etay deb qoldi. Yuguraverib sabri tugagan aka qochayotgan singlisini to'xtatish maqsadida ko'ylagidan tortdi. Ularning o'yinini tomosha qilayotgan gullar to'satdan "uh" tortib yuborishdi. Sababi, qizcha orqasiga qarayman deb yiqilib tushdi, taqdir chiziqlari bitilgan kichkinagina kaftchalari va tirsagi salgina shilindi. Qizcha "dod" deya baqirib yig'lay boshladi. Og'riqdan ko'ra qo'llaridagi qizil rang unga ko'proq ta'sir qilgandi. Akasi ovutishga uringani sari singil yig'ining avj nuqtasini olardi. Qizcha ho'ngrar ekan, yana qo'llariga qarab, yana qonni ko'rdi. Bu safar birato'lasini yerga yotvolib, oyoqlarini tapil-

latgancha yig'lashda davom etdi. Akaning ko'zi ham sizib chiqqan qonga tushdi-yu singlisiga qo'shilib yig'lay boshladi. So'ng onasini chaqirish kerakligi yodiga kelib, yugurgilab ketdi.

Shamol ko'zlaridan shashqator yosh oqayotgan qizchanning u yog'idan, bu yog'idan aylanib ovutishga harakat qilar, daraxtlar ham uni yig'idan to'xtatish ilinjida o'z ertaklarini boshlab yuborishgandi. Endi qizcha akasini tashlab ketgan gumon qilib, lablarini cho'chchaytirgancha baqirib ho'ngray boshladi. Ammo shu payt birdaniga yig'i ovozi tindi. Qizcha yosh tomchilari harakatdan to'xtagan munchoqday ko'zlarini osmonga tikkan ko'yi yerda jimgina yotardi. Ahyon-ahyonda burnini tortib qo'yar, yoshlardan sug'orilgan kipriklarini piri-piratib osmondan ko'zini uzmasdi. Osmon dengizida esa oppoq yelkanlarini ko'targancha bulutlar izma-iz suzib yurardi. Ular shu qadar oqlikka burkangan, shu qadar mayin, shu qadar ajoyib ediki, qizcha beixtiyor qo'llarini yuqoriga cho'zdi. So'ng o'rnidan asta ko'tarilib, qo'lchalarini yana ko'kka cho'zdi. Yo'q, yetmayapti. Ha, sakrash kerak. Sakrasa, albatta, qo'llari bilan bulutlarni ushlab ko'radi, ehtimol, ularning ustiga chiqib osmonni sayr qilar. Shu maqsadda qizcha qo'llari va ko'zlarini osmonga

tikkancha og'rig'-u qo'rquvni unutib qaya-qayta sakrab ko'rdi. Eh, ozgina yetmayapti. Nigohlarini osmondan uzmagani ko'yi yerga qaytib o'tirdi. Uning butun ruhi, butun vujudi, barcha xayollari ana shu oppoqqina bulutlarga aylanib borayotgan edi. Uzoqdan yig'layotgan o'g'lini surgalab kelayotgan onasining tovushi qizcha aylanmoqchi bo'lgan bulutlarni go'yoki quyoshdek eritib yubordi. Qizcha sergak tortdi va onasini ko'rdiyu negaligini anglamagan holda yana yig'lab yubordi. Ha, bu vaqtda u to'rt yoshda edi...

* * *

Kecha onasi bilan birga yozgan so'zlari qatorlashib turgan daftarlarini olib, erinibgina portfeliga joyladi. Onasining qistovi bilan nushta ham qilib oldi. Shu payt nimadir yodiga tushdi-yu darhol deraza oldiga yugurdi. Derazadan o'z cheksizligini yoyib maqtanayotgan osmonga bir muddat qarab turdi. Ammo onasi darsga kech qolayotganini aytib ogohlantirgandan so'ng, orqasiga portfelini ilgancha maktabiga qarab jo'nadi. Yo'lda ketar ekan, o'sha – yiqilib tushgan kunidan beri uning nigohlari samo bilan ko'rishib turishga kelishib olgandek edi go'yo. Harholda osmon bunga ishonardi. Qizaloq bir muddat osmonga qarab yurdi-da, to'xtadi va

qo'llarini qattiq-qattiq silkitib sakradi. Nazarida, oz-moz balandlaganday bo'ldi. Yugurish kerak. Yo'l bo'ylab yelkasidagi portfelini silkitib-silkitib, qo'llarini tepadan pastga tez-tez harakatlantirib chopdi-yu "Hozir uchib ketaman" degan xayol bilan kuchi boricha sakradi. Afsus, bo'lmadi. "Eh, portfelim xalaqit beryapti-da, – xayolidan o'tdi qizaloqning. – Ha, mayli, uyga qaytganimda yana bir urinib ko'raman". Maktab qo'ng'irog'ining jarangi qizaloqni bu safar "qanot"larini qoqmasdan yugurib ketishiga majbur qildi. Yetti yosh ham u bilan birga yugurishdan charchamas edi...

* * *

– Onajon, qarang, aka, qaranglar! Osmondan buvim aytgan o'sha oppoq farishtalar tushyapti, ha, farishtalar! – quvonganicha qichqirardi qizaloq yog'ayotgan laylakqorga ishora qilib.

– Ko'p valdirayvermasang-chi! – jig'ibiyroni chiqdi matolarni qirqib, o'lchamni chiqara olmayotgan onaning. Yozmayotgan ruchka uchiga tinmay puflayotgan aka esa chaqiriqni eshitmaganlikka oldi.

– Eh, qaniydi, ucha olsam! Bu farishtalarni qayerdan tushayotganini ko'rib kelar, yoki ular bilan quvlashmachoqmi, qorbo'ronmi o'ynardim, qarang, ular ucha olishadi-da. Keyin ulardan-

chi, onajon, dadam aytib bergan o'sha shayton haqida ham so'rardim. Sizlar yo'qligingizda u farishtalar bilan birga yashagan-ku. Bu yerga ko'chib kelganingizdan so'ng shayton sizlarning oldingizga kelgan-ku, a? Keyin...

Quloqlariga faqat allaqanday g'ong'ir-g'ong'ir tovush kirayotgan ayol qaychisini stolga qattiq urdi-da, qoshini chimirgancha qiziga qaradi. Qizaloqning to'satdan yumilib olgan lablarida to'siqqa uchragan so'zlar ortiga qaytib ketishga majbur bo'ldi. Bir ozdan so'ng kallasiga kelgan bir fikr ifodasi yuzida yaraq etdiy-u, yana so'ndi va o'ziga:

– Ertaga Hayit. Bugun Xizr bobodan yostig'imning ostiga qanotlar tashlab ketishini so'rayman, – deb pichirlab, ko'chaga chiqib ketdi. U yerda ko'zlarini osmonga qadab, kimgadir nimalarnidir gapirdi. To'qqiz yosh ana shu oppoq farishtalar kabi qizaloqning barmoqchalariga ohista qo'nib erib ketayotgan edi...

* * *

“Taq, taq, taq...” Qiz taxtaning ustida turgan barmoqlari orasidagi mixni bolta bilan urardi. «Taq, taq» ...

Kecha onasining ta'biri bilan aytganda “hadeb supurishga majbur qilayotgan” tut daraxtini cho-

pib tashlashdi. Qiz bir paytlar ustiga chiqarib uchishiga yordam beradigan tut gavdasining gursillab tushgan tovushidan yuragi allanechuk bo'lib ketdi. Esida, tutning yirik shoxiga chiqib, parvoz etish umidida qo'llarini pirillatib sakraganida oyog'i sinishiga bir baxya qolgandi. Qiz kecha otasi bilan akasi arralab qo'ygan tutning yog'ochlarini bir-biriga ulab qoqarkan, shularni esladi. Ammo, mana, tut o'zini qurbon qilib bo'lsa-da, qizning uchishi uchun yana, faqat so'nggi marotaba o'z yordamini ayamayapti. "Ana, tayyor bo'ldi, – o'yladi qiz. – Endi matoni taxtaning mana bu yerlariga qoqsam bo'ldi". Uydagilarining bozorga ketganidan foydalanayotgan qiz o'z maqsadini amalga oshirish uchun iloji boricha tezroq harakat qilishga shoshilardi. "Uyimiz tomidagi tarnov chetiga in qurgan musichaning ham qanotlari deyarli ana shunday shaklda. Nihoyat, qushlar bilan birga parvoz etadigan bo'ldim!" Qiz uchburchak qilib yasalgan ikki bo'lakdan iborat qanotlarning ulangan joyini yelkasiga qo'ydi. Qanotining ostki qismidagi maxsus ushlagichlardan ushladi. "Darvoqe, avval tomga narvonni qo'yishim kerak". Shoshapisha narvonni sudrab keldi. O'zi kutganidan bir muncha og'irroq qanotlarini taqdi. Avvaliga

tomning pastroq qismidan uchib tajriba qilib ko'rish kerak. Mana, chiqib ham oldi. Yuqoridan turib hovlisining ichiga nigoh tashladi va hayron qarab turgan kuchugiga qayerdandir yodlab olgan "Meni kutgil va men qaytarman" jumlasini aytdi va "Bismillahir rohmahir rohiym" dedi. Ota-onasi har bir ishni "Bismillo"dan boshlasa, xayrli bo'lishini uqtirishgandi. Mana, bazo'r-bazo'r qanotlarini silkitgancha tomdan ko'cha tomonga qarab sakradi. Bu paytda u o'n ikki yoshda edi. Qattiq chinqiriqdan qo'shni hovlidagi ayol qo'llari unga belangancha yugurib chiqdi...

* * *

– Nega endi ruxsat bermaysizlar? Axir, bor yo'g'i dugonamning tug'ilgan kuni-ku. Kechqurun chaqirgan bo'lsa nima qilibdi, uyi uzoq bo'lsa taksida borib, taksida kelaman. Nima, yosh bolamanmi?! Hamma ishimga aralashaverasiz! Darsdan nechada qaytishimga ham, nechada ketishimga ham gapiraverasiz, bundan keyin bilganimni qilaman! Jonimga tegib ketdi bunday hayot! Ey Xudo, qanot bersang bo'lmasmidi, hamma-hammani tashlab uchib ketardim! – Qiz onasiga shunday deb qichqirar ekan, bir necha yillar oldin "qanot qoqaman" deb oyog'i chiqib

ketgani va Mosh tabibga soldirib kelishgani ana shu lahzalarda yodiga tushmadi.

Qizning bu gaplari onasining qalbidagi uzilmas nozik torlarni chertib-chertib o'tar ekan, qiziga xavotirli nazar tashlab qo'ydi. Ammo qizining o'n olti yoshdaligi va bu davrning o'tkinchi ekanligi borasidagi fikrlar onasiga tasalli berdi. Qiz o'zi ham aytishni istamagan gaplari og'zidan chiqib ketganiga o'ksindi va qandaydir shahd bilan derazaning oldiga keldi-da, yosh mo'ralab turgan ko'zlarini osmonga tikdi...

* * *

– Ota, o'ksinmang, o'zingizni ayblayvermasangiz-chi. Ona, siz ham ko'p yig'lamang. Xudo xohlasa, albatta, keyingi yili kiraman, mana ko'rasiz. Endi qo'shimcha darslarga bormay, faqat ishlayman, ha, ishlayman! Keyin qarabsizki, to'plagan pullarim meni byudjetga yetaklab turibdi.

Qiz uydagilarini tinchlantirgach, do'kondan non olib kelish bahonasida o'zini ko'chaga urdi. Ko'chada cho'zilib yotgan yo'l bu qadamlarning ancha og'ir ekanligini his qildi. U uzoq yurdi. Do'kon ham ortda qoldi. So'ngyo'lini ko'p vaqtdan buyon qarovsiz dalaga qarab burdi. Bulutlar birbirlaridan arazlashgandek, qo'ng'ir to'nlarini tes-

kari kiyib olishgan. Dala bag'ri keng bo'lib, unda turli xil o'simliklar, gullar o'z holicha o'sib yotibdi, odamlarning qorasi esa ko'zga tashlanmaydi. Qiz arzini ko'zida yosh bilan aytmoqchi bo'lib turgan maysalarga ham, oyoqlariga chirmashib uni to'xtatmoqchi bo'lgan chirmovuqlarga ham, etagiga suyaklab erkalanmoqchi bo'lgan gullarga ham qaramay dalaning o'rtasiga kelib to'xtadi. Nigohini osmonga tikdi va chiqishini kutib bo'g'zida tiqilib turgan so'zlarni yig'i aralash hayqirdi:

– Nega?..

Ammo yig'i qizning yana og'iz juftlashiga yo'l qo'ymadi. Qiz maysalar ustiga o'tirdi. Yuzlarini duv-duv yosh yuvar ekan, ko'zlarini unga qo'shib yig'lab yuborish arafasida lunjini osiltirib turgan bulutlarni o'z bag'riga olgan samoga yana qadadi. So'ng, birdaniga o'rnidan sapchib turdi-da, dala bo'ylab qo'llarini silkita-silkita yugura boshladi. U jon-jahdi bilan chopar, qo'llarini ham qattiq-qattiq silkitardi. Yo'q, dala bo'ylab yugurayotgan bu yigirma yashar qiz qancha urinmasin, yerdan balandlay olmadi...

* * *

– Oyijon, oyijon, mana bu mushichani qayang. Qayasayizchi, e, uchib ketdi, - dedi jajji

qizcha, yigirma olti yasharlik qiz-onasiga qarab.
– To‘xta, mushicha, menam sen bilan uchaman.

Qizcha hovli bo‘ylab qo‘lchalarini tepaga ko‘targancha yugurgiladi. Umidlari puchga chiqqach, onasining oldiga keldi-da:

– Oyijon, manam katta bo‘sam, aytib beyadigan eytagizdagi qizga o‘xshab uchib ketaman-a? Chiyoyli qanotlayimam bo‘ladimi?

Nimadir “jiz” etdi. Ona jilmaygancha bosh irg‘adi-da, osmonga uzoq tikilib turdi va ancha mustahkamlanib qolgan irodasini jamlab, ko‘zidan dumalamoqchi bo‘lib turgan yoshlarini bazo‘r to‘xtatdi...

* * *

Qizlari bilan dasturxon tuzayotgan qirq olti yoshli qiz quvonchdan o‘ziga sig‘masdi. Axir, bugun o‘g‘li xoriждан uchib keladi. Shippagini ildirib, nimadir olish maqsadida qo‘shni xonaga o‘tib ketayotgan ona tepadan guvillagan ovozni eshitdi. Ko‘zlarini osmonga qaratdi. Aniqrog‘i, pastlab uchib ketayotganmi, kelayotganmi uchoqqa qaradi. “Ha, shuning ichida o‘g‘lim bo‘lsa kerak. Eh, hidini biram sog‘indimki!” – xayolidan o‘tdi onaning. Ammo, shu payt, qizning nigohi beixtiyor yelkanlari oppoq bulutlarni o‘z bag‘riga olgan samoga tushdi. Ha, u ancha vaqtdan beri

osmonga qaramagan, uni deyarli unutayozgan edi. Samo va qizning nigohlari ana shu vaqtda tirikchilikning ayirmachiligi natijasida uzoq muddatdan so'ng yana ko'rishib turishgandi. Osmon, ehtimol qiz ham nimadir demoqchi ediki, ammo Qizning esiga qaynayotgan qozoni tushib qoldi va shoshganча yoxud nimadandir qochganча o'zini ichkariga oldi...

* * *

Bugun arafa. Mana shu kuni qizcha qo'lini duoga ochib, biror-bir istagini Xizr bobodan so'rar va aksariyat vaqtlarda u istak Xizr boboga aylangan otasi tomonidan amalga oshardi.

Uydagilarning hech birida ertangi bayram kayfiyatidan asar yo'q. Ularning ruhiyatini chuqur bir qayg'u asir olgandi. Hammalari ko'rpada yotgan yetmishdan oshgan qiz-kampirning atrofini o'rab olishgan. Qiz shu yerdagi hammaning yuziga rizolik alomati sifatida bir-bir sassiz qarab chiqdi. Butun tanasini asta-sekin qamal qilayotgan sovuqlik birgina "Oh"ga aylanish uchun bir joyga yig'ilayotgandi. Ko'zlarida nam bilan ko'pchilik qizning og'zidan qandaydir vasiyatlar kutishardi. Mana, nihoyat, qiz og'iz juftladi. Nafaqat o'tirganlarning, balki sukutning ham butun vujudi quloqqa aylandi. U:

– Derazani ochinglar, – dedi ohista. Tezda pardalar ko‘tarilib, derazalar lang ochildi. Boyadan beri kirishning ilojini qila olmayotgan mayin shamol ochiq derazadan yugurgilab xavotirlangancha qadrdonining oldiga keldi. Qiz derazadan o‘zi istaganiday so‘nggi kuzatuvchisi bo‘lmish osmonni ko‘rdi. Ko‘rdi-yu butun orzulari ko‘zidan bir tomchi yoshga aylanib oqib tushdi. Osmonda bir paytlar o‘ziga maftun qilganча parvozga chorlagan va hozir ham chorlayotgan o‘sha, o‘sha oppoq bulutlar turardi. Qiz lablari ohista jilmayib: “Ana, endi ucha olaman!” dedi pichirlab...

Nihoyat, qizcha ko‘pdan buyon so‘raganini Xizr bobo bugun yostig‘ining ostiga qo‘yib ketgandi.

BALIQNING HIKOYASI

Hozir hovuz tubidaman. Suv sathida kumush yaproqlardek qalqib-qalqib raqs tushayotgan oftob nurlari meni yuqoriga imlayotganday bo‘laveradi. Go‘yo quyosh osmondan uzilib hovuzning ichiga tushib olgan-u, suzishni bilmaydigan boladek, qo‘lchalari bilan suvni chalpillaatayotgandek.

Yaqin-yaqingacha butun olam faqat suvdan iborat, biz suzib yurgan hovuzning qa‘ri ham, sathi

ham yo‘q va bo‘lishi mumkin emas, atrofda esa o‘zimizga o‘xshagan baliqlar, demak, bu borliqning egasi bizmiz, degan tasavvurga qattiq ishonardim. O‘sha kezlar mavjlar ichra jilvalanayotgan oftob aksini ham men o‘zidan yog‘du taratadigan ulug‘ sehrli baliq deb o‘ylaganman. Bir marta shu nuroniy baliqni yaqindan ko‘rish uchun tepaga qarab suzганиm yodimda. Niyatimni akalarim eshitgach, “Seni qara-yu, sehrli baliq emish! Nur sochuvchi emish!” deya meni mazax qilishgan. Haqligimni isbotlash uchun qasdma-qasdiga, to nozik suzgichlarim zo‘riqib kuchdan qolguniga qadar suzaverdim. Yuqorilaganim sayin o‘sha g‘aroyib baliq yanada yorqinroq porlar, yorug‘likdan ko‘zlarim qamashar edi.

“Hovuzning bepoyonligi bor gap, uning enini yoki bo‘yini o‘lchash uchun butun umr suzish kerak”, deb o‘ylardim o‘zimcha. Suv haroratining asta-sekin iliqlashib borishidan horg‘in suzgichlarimga qayta kuch kirganday bo‘ldi. Nihoyat, nur taratuvchi sehrli baliqqa yetdim deganimda, yangi olamga – suv ustiga qalqib chiqdim.

Ko‘z o‘ngimda namoyon bo‘lgan manzara tush emasligiga ishonch hosil qilishim uchun uzoq vaqt ketdi. Mittigina yuragim vujudimga sig‘masdi. Go‘yo ikki dunyoni bir-biridan ajratib

turgan harir pardani yirtib, ming yildan buyon muhrlanib yotgan ilohiy sirdan voqif bo'lgandim. Tez suzar yaltiroq baliqchalar galasidek u yoqdan bu yoqqa xirom qiladigan shamolni, ulkan hovuzning tubiday keng, moviy osmonni, bobom aytib bergan oq kitlar misoli vazmin bulutlarni va men yog'du sochuvchi sehrli baliq deb xayol qilgan quyoshni o'shanda taniganman. Bu muhtasham olamda biz bilan birga yashashga haqli qushlarni, odamlarni ham o'shanda ko'rganman. Eng qizig'i, o'zim mansub bo'lgan borliqqa – hovuzga birinchi marta sirdan nazar solgan edim.

* * *

O'sha voqeadan so'ng yam-yashil suv o'tlari chippa yopishib olgan hovuz devorlari g'ashimni keltira boshladi. Ular bizni sirli xilqatlardan to'sib turganday edi. Shu devorlar ortida osmonga, quyoshga o'xshash mo'jizalar, hayot nishonalari bor edi go'yo. Bolaligimda cheksiz tuyulgan hovuz ham endi ulkan olamning bir parchasi ekani ayon bo'lgandi. Bugun ana shu "parcha"ning – hovuzning kengligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun uni aylanib chiqishga ahd qildim.

Ovqat tashlanadigan, biz xo'rak-minor deb ataydigan baland, narvonsifat minbarning suvga

tushib turgan uzun soyasini mo'ljal qilib, hovuz devori bo'ylab suzib borar ekanman, har doimgiday nima haqidadir bahslashayotgan o'rtoqlarimning gap-so'zlari e'tiborimni tortdi. Ular baliqlar qanday paydo bo'lgani haqida talashib-tortishardi. Kechasi osmonga qarab yotsang, atrofiga yulduzlar tizilgan bahaybat baliq tasvirini ko'rasan, dadamning ayti-shicha, o'sha sehrli suratdan ikkita yulduz pastga tushib ketgan, keyin ular tirik baliqlarga aylangan ekan, dedi biri. Boshqa biri, yo'q, bizlar qushdan paydo bo'lganmiz, deya e'tiroz bildirdi. Uning ishontirishicha, ilgari zamonda yomg'irni, zilzilani oldindan sezadigan, nima gapirsa to'g'ri chiqadigan bir qush bo'lgan ekan, ovozi xunukligi uchun odamlar uning qanotini yulib, suvga tashlashgan ekan, bizlar shundan tarqalgan emishmiz. Bir yoshroq baliq, nega unda boshqa qushlarning qanotini yulishmaydi, deb so'rab qoldi. Chunki ularning sayrashi odamlarga yoqadi-da, shuning uchun ham nima deb sayrashni emas, qanday sayrashni bilish kerak, uka, nasihat qilgan bo'ldi rivoyatgo'y baliq. Uning, biz yana qayta qushga aylanishimiz mumkinmi, degan savolga "Albatta!" deb qilgan hayajonli javobi hammasidan o'tib tushdi. Muloqotga quloq tutib turganlar birdaniga kulib yuborishdi. Mulzam bo'lgan rivoyatgo'y

baliq ranjigan ko‘yi “Men bunga ishonaman!” dedi qat‘iy ohangda.

Suzishda davom etdim. Mana, hozirgina tinimsiz qizini chaqirayotgan, o‘zini qo‘yarga joy topolmay ketgan-qaytgandan bolasini daraklayotgan ona baliqning yonidan o‘tdim. Sal narida changalzor deb nom olgan, qalashib o‘sadigan sershox, ser-yaproq suvo‘tlarining makoni ko‘rinib turibdi. Bu yerda qavmimizning yoshi ulug‘ besh donishmandi yashaydi. Ular kunduzi yotib uxlashadi. Ularni kamdan-kam baliqlar ko‘rgan. Donishmandlar hamma uxlagan payt uyg‘oq turishadi.

Chamalab ko‘rsam, hovuzning yarmiga yetib kelibman. Birpasda. Bobomning “Bu tog‘orada yasholmay, ertagayoq siqilib o‘lsam kerak”, deb har kuni takrorlaydigan gaplari yodimga keldi. Bobom, o‘zlarining aytib berishlaricha, ummonda tug‘ilgan ekanlar. Ummon deganlari hali biror baliq chegarasini – devorini topmagan ulkan hovuz ekan. Hanuz aqlimga sig‘dirolmayman. Xohlagan tomoningga qarab suzaversang-suzaversang, hech qanaqa to‘siq seni to‘xtatmasa, dunyoning oxiri ko‘rinmasa. Qanday ajoyib! Bizga o‘xshash turli-tuman jonzotlar, yangi do‘stlar, qanchadan-qancha sarguzashtlar! Hali shu o‘zimizning boshpanamizni to‘liq aylanib chiqmay turib, bir-biridan qiziq hodisalarga duch bo‘lyapman.

Hovuzda mingdan ziyod baliq bo'lsa, ham-mamizning zotimiz bir, faqat anavi ikkisidan bo'lak. Bu ikki baliqning peshonasi, tangalarining rangi ularning zodagonlar avlodiga mansubligini bildiradi. Lekin ularning qaerdan kelgani, bu hovuzga qanday tushib qolgani noma'lum. Doim birga yurishadi, boshqalarga qo'shilishmaydi, urush-janjal chiqsa, bir-birovini qattiq himoya qilishadi, xullas, juda inoq juftlik. Ikkovining hamjihatligi barchaning havasini keltiradi, biroq g'alati bir qiligi ko'pchilikning ko'nglini xira qiladi, kulgisini qistaydi: ovqat payti bo'ldi deguncha ahil do'stlar bir zumda ashaddiy dushmanlarga aylanishadi. Xo'rak talashib bir-birini turtadigan, so'kadigan, hammadan baland baqiradigan shular. Bu tomoshaga birinchi marta guvoh bo'lgan baliq ularni hech qachon yarashtirib bo'lmaydigan azaliy yovlar, deb o'ylashi tayin edi. Ammo eng hayratlanarlisi, mojarodan besh daqiqa o'tar-o'tmay, yana dunyodagi eng inoq do'stlarga aylanishadi. Hozir ham ular to'dadan chetga chiqib olib, sevimli mashg'ulotlari – latifa to'qish bilan band.

Hovuzni gir aylanib chiqish uchun o'rtacha tezlikda suzsa yarim soatcha vaqt sarf bo'lar ekan. Yarim soat...

* * *

Cho'lp... cho'lp... cho'lp...

Qaysidir saxovatpesha non bo'laklab, har zamonda suvga tashlamoqda edi. Hali ovqat beriladigan payt bo'lmagani aniq, kundalik tartib yodimizga muhrlanib qolgan. Xo'sh, bu kutilmagan homiyni qaysi shamol uchirib keldi ekan? Hammamiz kim o'zar o'ynaganday yuqoriga jadal suzar, non yeyish uchun emas, hovuz bo'yida muk tushib o'tirganning kimligini ko'rish uchun oshiqar edik.

Negadir oftobning charaqlashi ham, nurlarining raqsi ham boshqacha edi, xuddi yoqut kapalaklar qanotchalarini suvga botirib-botirib bir-birini quvalayotganday. Bu jozibali manzara go'yo yaxshilikdan mujda edi.

Suv yuziga qalqib qarasam, hovuz bo'yida yengi uzun ko'ylagini tirsagigacha qayirgan, bilaklari serjun va baquvvat bir yigit oyoqlarini yig'ishtirib o'tiribdi. U ko'zlarini bizdan uzmasdi. Men uni ibodat qilyapti, deb o'yladim. Ko'p o'tmay u jarangdor va yoqimli ovozda gapira boshladi. Qo'lidagi nonni maydalab suvga birin-ketin otar ekan, chehrasida samimiy ifoda balqib turardi. Men har dam suvga bir cho'mib olar, odam tilini

bilmasam ham, bu notanish mehribon yigitning soʻzlarini tushunishga, nima demoqchiligini yuz ifodalaridan, qoʻl harakatlaridan uqib olishga harakat qilardim. Hovuchidagi soʻnggi ushoqlarni bizga ilinib, yana biroz nimalarnidir gapirib oʻtirgach, yigit joʻnab ketdi.

Uning peshonasiga tushgan sochlari, lablarinig qimirlashi, koʻzlari, chayir bilaklari kechgacha xayolimni tark etmadi. U faqat menda emas, boshqalarda ham yaxshi taassurot qoldirgan edi. Bizga ovqat beruvchi novcha odamning esa zulukka oʻxshash moʻylovi-yu yaltiroq kal boshidan oʻzga eslashga arzigulik xususiyati yoʻq edi. Ha, birovning yodida qolish ham baxt boʻlsa kerak.

Bechora yigit. Bizga nimalar dedi ekan-a? Balki yordam soʻragandir? Biror qadrlı narsasi suvga tushib ketgan boʻlsa, olib chiqishimizni istagandir? Ehtimol birov ranjitgan boʻlsa, koʻnglini toʻkkani kelgandir? Balki biz bilan doʻstlashishni xohlagandir?.. Ey, notanish yigit! Qaniydi soʻzlaringning maʼnosiga tushuna olsam. Dardingga sherik boʻlsam. Senga koʻmagim tegsa. Endi qaytib kelmassan, balki qaytarsan. Bilib qoʻy, biz seni unutmaymiz... Necha yil deganda Xudo bizga bir hamsuhbat yuborsa-yu, shuni ham koʻp koʻrsa.

Ertasiga tong sahardan barchamiz kuta boshladik: keladimi, kelmaydimi? Yosh baliqlar suv sathiga yaqin suzib yurishar, ularni qiziqish va birinchi bo‘lish ishtiyoqi chulg‘ab olgan edi. Kattalar sezdirmasa-da, bejo harakatlaridan ularning ham nimadandir bezovtaligi fosh bo‘lib qolardi. Oradan bir, ikki... besh soatcha vaqt o‘tdi. Necha bor suvdan boshimni chiqarib qaradim. Quyosh ham ulkan ko‘z misoli atrofga zimdan razm solar, izquvar nurlarini yo‘llab xabar kutayotganday edi. Oxiri, o‘ynoqi baliqchalarga zerikish yuqdi. Barchaning toqati toq bo‘ldi: kelmaydi...

To‘satdan eshitilgan ovozdan hamma tepaga yalt etib qaradi:

Cho‘lp... cho‘lp... cho‘lp...

* * *

Shu tariqa yigit har kuni bizning oldimizga keladigan bo‘ldi. U doim bir nimalarni gapirar, biz esa tinglar va o‘zimiz ham ko‘p narsalarni so‘zlab berar edik. U tashrif qilgan chog‘ baliqlar suv yuziga suzib chiqardi. Tumshug‘i uzun qushlar qanot qoqayotgan balandlikdan biz non ustidagi qora sedanalarday ko‘rinar edik. Shamol bir-biriga g‘oyibiy rishtalar bilan bog‘langan bu ikki

xil mavjudotning g'aroyib muloqotida ishtirok etar, tarjimonlik qilolmay joni halak edi.

Yigit gapirar ekan, goh-gohida suvga termulib jim qolar edi. Shunda tolei kulgan bobom ummon haqidagi hikoyalarini zo'r shavq bilan aytishga tushar, har safar "Xaloskor yigit, bizni ozodlikka chiqar, ummonga olib ket!" deb hayqirar edi. So'ng yosh baliqlarning odamzod haqidagi javobsiz qoladigan savollari, ko'r baliqning mungli qo'shiqlari, burnining teshigi katta bo'lgani uchun Burun xola degan laqab olgan baliqning g'iybatlari, ikki aslzoda do'stning yangi latifalari ketma-ket yangrar edi. Biroq baliqlar gapirish uchun emas, ko'proq tinglash uchun to'planishar, yigitning ovozi, tushunarsiz so'zlari suv ahlini mahliyo qilgan edi. Men ana shu lahzalarni – olomonning mehr jilvalangan yuzlarini tomosha qilishni yaxshi ko'raman.

Tasodifan nigohim shundoqqina yonimda turgan bir baliqqa tushdi. Uning jamoli, chiroyli ko'zlari o'sha ondayoq hushimni o'g'irladi. Chehrasidagi beg'uborlik, poklik ko'ngliga oyna edi. Qanday qilib yonginamdagi shunday go'zalni ilg'amabman. Men tamomila hamma narsani unutgan edim. Atrofdagi baliqlar qayoqqadir g'oyib bo'lgan, bu borliqda faqat men va u qolgan edik.

Uzoq tikilib turganimni sezib, u menga uyalib qaradi. “Ajoyib-a?” degan mayin ovozdanda o‘zimga keldim. Kutilmagan murojaatdan esankirab, nima deb javob qilishni bilmay, oxiri shu yagona so‘zning o‘zini ilib oldim: “Ha, nimasini aytasiz, ajoyib!”

Hozirgina nimaning ajoyibligini tasdiqlaganimni bilmasdim. Xayolim olis-olislariga suzib ketgan edi. Beixtiyor hamma qarayatgan tomonga – yuqoriga boshimni burdim, ko‘zim hovuz bo‘yida turgan o‘sha tanish odamga tushdi, u hamon gapirmoqda edi. Shu ondan boshlab yigitni yanada kuchliroq yaxshi ko‘rib qoldim: menga sevgimni uchratgan o‘zingsan! Sen baxt farishtasisan, ey yigit! Uni bir bor ko‘rsang edi. Uning oppoq tangalari hech kimnikiga o‘xshamaydi. Topdim! Uni Oqbalig deb atayman.

* * *

Men uchun haqiqiy hayot endi boshlanganday edi. Shu vaqtga qadar go‘yo yashamagan ekanman. Endi Oqbalisiz biror soat turolmayman. U ham, garchi meni ko‘rganida ko‘zlarini olib qochsa-da, tuyg‘ularimga xayrixoh. O‘ziga bildirib-bildirmay doim uni kuzatganim-kuzatgan. Bu odatim unga yoqishini sezaman. Yana Oqbalig deb chaqirishimni ham yoqtiradi.

O'sha kungi birinchi uchrashuvimizdan keyin yana ikki bor yuzma-yuz keldik. Suhbatlarimiz muxtasar bo'lsa-da, ikkimiz ham bir-birovimizni ko'rganimizdan shod edik. Oxirgi marta xayrlashayotib, suzgichlarimiz beixtiyor tegib ketganida, rosti, rosa hayajonlandim. Mana, hozir hovuzning quyosh chiqar tarafida singillari bilan quvlashmachoq o'ynayotgan Oqbaliqdan nigoh uzmay yorug' xayollarga g'arq bo'laman, yuragim orzu kemalarining bandargohiga aylanadi.

Oqbaliqni ilk uchrashuvdagiday bir umr yonimda bo'lishini tasavvur etaman. Unga o'xshagan chiroyli va sho'xchan bolalarimizning atrofimizda erkanib suzayotgani, ularning qiliklaridan quvonib bir-birimizga qarab qo'yayotganimiz, kechasi hammamiz bir oila bo'lib yonmayon uxlayotganimiz ko'z o'ngimda jonlanadi. Eng yaqin do'stim – har kuni suv bo'yiga keladigan yigitning oldiga bolalarim bilan peshvoz chiqishni, ularning hayrat to'la jajji ko'zlarini, beradigan ilk savollarini o'zimcha xayol qilaman. Ularga Oqbaliq bilan shu yerda tanishganimizni, uning menga aytgan birinchi gapini va mening dovdirab qolganimni, tentakona javobimni – hammasini hikoya qilib beraman...

Shu payt hovuz chetlarida ko'payishib qolgan odamlarning baqir-chaqiridan sergak tortdim.

Ular o‘zaro nimanidir muhokama qilishar, o‘rta-
da turgan qorni semiz kishi ko‘proq gapirar, bar-
mog‘i bilan hovuzga ishora qilib qo‘yar edi. Qo‘l
qovushtirib turganlar ichida esa bizga xo‘rak be-
ruvchi kal ham bor edi. Hayronman, bularning
uyidan ilon chiqqanmi? Ertalabdan boshqa joy
qurib qolganday, bizning oshyonimiz tepasida
yig‘ilib olishgani g‘alati. Mayli, ko‘p qichqiraverib
halovatimizni buzishmasa bo‘lgani.

Oqbalig qani? Boyagina shu atrofda edi-ku.
Qayoqqa ketdi ekan?

– Oq-ba-liq!

Odamlar ko‘targan shovqindan cho‘chib,
biror panaroq joyga berkindimi? Yoki singillarini
qo‘yish uchun xavfsiz yer izlab yuribdimi?

Suzishga shiddat qo‘shib, hovliqqancha ho-
vuzni kezib chiqdim. Hech qayerda yo‘q. Chan-
galzorga – donishmandlar makoniga yaqin kelib
to‘xtadim. To‘rt tomonga alanglayman.

Uzoqdan g‘uvillagan ovoz tarala boshladi. Bu
nimaning ovozi bo‘ldi? Yuragimga suvo‘tining
mitti bargiday vahima kirib oldi. Endi Oqbalig
haqida battar xavotirlanardim. Tepada so‘ppayib
turgan odamlar ortga chekinib, nimagadir yo‘l
ochmoqda edi.

Hovuzning narigi boshida bir narsa qorayib
ko‘rindi. U asta-sekin kattalashar, g‘uvillagan ovoz

ham tobora yaqinlashib kelar edi. Hovuzdagi baliqlar avvaliga anchagacha qilt etmay turib qolishdi. Keyin birdaniga orada allaqanday bezovtalik uyg'ondi. Hamma u yondan bu yonga suzar, qarshimdan men tanigan qiyofalarning barchasi lip-lip o'tar, faqat Oqbalig yo'q edi.

Qora narsa hovuzga yaqin kelib qoldi, u bilan birga boyagi ovoz ham. Suvning zirillashidan hatto donishmandlar uyg'onib, xilvat maskanlarini tark etishdi. Negadir bu menga yaxshilik alomati bo'lib tuyulmadi. Lekin bobomning tantanali xitoblari ko'nglimni yoritib yubordi: "Ana! Yigit oxiri gapimga tushunibdi-da! Bizni olib ketishadi! Bizni ozod qilishadi! Ey ummon, eski qadrdoningni qarshi olishga tayyorlan!"

Haqiqatan ham, bizni ummonga qo'yib yuborishsa-chi?! Hech narsaga foydasi tegmaydigan tekinxo'r baliqlar odamlarga nega kerak? Azaliy orzularimiz ushaladigan fursat yetdi... Yigit, mening do'stginam! Senga rahmat. Sen baliqlarning tilida, dilida mangu yashab qolasan.

Yuragimda jarang sochayotgan umidlarning yoqimli musiqasi quloqni kar qilar darajada g'uvilayotgan ovoz bilan hech hamohang tushmayotgan edi. Nihoyat, qora narsa hovuzning narigi tomoniga kelib to'xtadi. Bu yuk mashinasi edi.

Dahshatli ovozning ham undan chiqayotgani ayon bo'ldi. Mashina haydovchi xonasi va ikkita bahaybat yapaloq yuk-qozondan iborat edi. Birozdan so'ng qirg'oqdagi odamlar boyagidan-da ko'paydi.

* * *

Negadir bugun bizga ertalabki ovqatni berishmagan, shuning uchun hamma juda asabiy edi. Ustiga-ustak, begona yo'qlovchilarning baqirchaqiri, yuk mashinasi – qandaydir favqulodda voqea yuz berishidan ogohlantirayotganday edi. Hovuzdagi baliqlar tipirchilay boshlashdi. Qayoqqa qaramang, xavotir aks etgan ko'zlar.

Bir mahal yuzida chandig'i bor barvasta kishi odamlar orasidan oldinga chiqdi-da, hovuz labiga keldi. U qo'lida temir dastasi uzun, uchiga katta halqa mustahkamlangan to'r ushlab olgan edi. Og'zi tinmay vaysayotgan sheriklari ham tuyqusdan jim bo'lishdi.

Men hovuzning narigi chetida edim. Shu zahoti chandiqli kishi turgan tomonga qarab o'qday otilib suzib ketdim. Oqbaliq! O'sha yoqda bo'lsa-ya. Tig'iz olomning ichidan o'tib ketishga qiynalayotgandir. Sabr qil, hozir oldingda bo'la-man, hozir!

Asabi dosh berolmay bir joyda aylanayotgan, to‘da-to‘da bo‘lib janjallashayotgan yuzlab g‘azabnok baliqlar orasidan yorib o‘tish chindan ham mushkul edi. Lekin men bor kuchim bilan faqat olg‘a intilardim. Ko‘z oldimdan Oqbaliqning ilojisiz va tashvishli siymosi nari ketmas edi.

Mana, hovuzning odamlar qo‘nim topgan tarafiga o‘zim chamalaganimdan tezroq yetib keldim. Bu yerda baliqlar yanayam ko‘p edi. Men zich izdihom ichiga kirib qoldim. Go‘yo suv to‘la idishga baliq solingan emas, aksincha, baliq bilan to‘ldirilgan idishning bo‘sh joylariga suv solinganday edi. Endi bunday sharoitda erkin suzish, istagan tomoningizga burilish sira imkonsiz, g‘ala-g‘ovurdan qulog‘ingiz tom bitishi hech gap emas edi. Ovozimning boricha chaqiraverdim: Oq-ba-liiiiq!

Shu payt suvga xo‘rak sepishdi. Haqiqiy tomosha ana shunda boshlandi. Och baliqlar xuddi boshqa tajovuzkor maxluqlarga aylanishganday edi. Hamma baravar suv yuziga talpinar, suzgichlari, dumi bilan itarar, turtkilar, bir-biriga aslo qaramas edi. O‘zingiz harakat qilmasangiz ham, pastdan qo‘zg‘alayotgan g‘ayritabiiy kuch sizni tepaga olib chiqib qo‘yardi.

Birdan yana qandaydir qudratliroq kuch ta‘sirida biz yuqoriga ko‘tarila boshladik. Zum

o'tmay o'zimni havoda ko'rdim... Men to'r ichida edim. Mayda katak qilib to'qilgan arqonning tugunlari tanamga qattiq botganidan va suzgichimning pardasi yirtilib ketganidan jonim og'rir edi. To'rning eng tagida qapishib yotganim uchun suvga eng yaqin o'zim edim. Ko'z o'ngimdagi manzaraga "hovuzda baliqlar qaynayapti" degan ta'rif to'la mos kelar edi.

Nigohlarim hamon Oqbaliqni izlayotir. Hech bo'lmasa, uni so'nggi bor ko'rsam. To'r ko'tarilayotganiga qaramay, suvdagilarning har biriga tez-tez nazar solib chiqishga, Uni topib olishga jon-jahdim bilan tirishaman... Ana u! Oqbaliq! Meni eshityapsanmi?..

To'satdan olam qop-qorong'i bo'ldi. To'rni yuk mashinasining suv solingan bahaybat yapa-loq qozoni ichiga bo'shatishgan edi. Atrof zimiston bo'lsa-da, mening ichim oydin. Muhimi, Oqbaliqni ko'rdim. Demak, u ham baribir shu ulkan idish ichiga tushadi...

Voqea o'ylaganimday kechmadi. Baliqlarga to'lgan yuk-qozonning og'zi yopilib, mashina o'rnidan jilganida Oqbaliq men bilan birga emasligini bilib bo'lgandim. Lekin uning narigi qozondaligiga ishonchim komil.

Nihoyat, mashina g'iyqillab bir siltandi-da, to'xtadi. Oh-voh qilib charchamagan baliqlar jim bo'lib qolishdi. Hamma endi nima bo'larkin, deb kuta boshladi.

Hayotbaxsh o'ylar og'ushida oradan qancha vaqt o'tdi, bilmay qoldim. To'g'risi, boshimizdan kechirayotgan bu voqealar menga ham juda xatarli tuyulayotir, qo'rqinchli xayollar meni ham iskanjaga olayotir. Biroq do'stinga – hovuz bo'yidagi o'sha yigitga ishonaman. U albatta bizni qutqarish uchun keladi, so'nggi lahzada yonimizda paydo bo'lib, kulfatlardan xalos etadi.

Ichkariga tushgan yorug'likdan ko'zlarim ko'r bo'lishiga sal qoldi. Kimdir yuk-qozonning og'ir qopqog'ini ko'tarib, to'rni soldi. Bugun peshonamga birinchi bo'lish yozilgan ekan, to'rga tushgan o'ntacha baliq havodan nafas ololmay tipirchilar edik. Hamma tomoni ko'rinadigan kichkina to'rtburchak hovuzga shalop etib tushdik. Yonginamizda ham xuddi biznikiday devorlari shaffof hovuzcha turar edi, unga negadir yuk mashinaning ikkinchi qozonidan baliq solishdi. Egallari boshqa-boshqa bo'lsa kerak, o'yladim o'zimcha.

Bir mahal bundoq qarasam, yonma-yon hovuzda Oqbaliq suzib yuribdi! Sevinchdan qich-

qirib, uni chaqira boshladim. Ammo ovozimni atrofimni o‘rab olgan baliqlarning shovqin-suroni ko‘mib tashladi. Ular nimanidir tanlashar-talashishar, shu orada barmoqlari bilan hovuzning oynasiga tiq-tiq qilib urib, biz bilan hazillashishga ham vaqt topishar edi.

Yangi hovuzchamizga birinchi bor to‘r solishdi. Bu safar bizlarni bitta-bitta tutib chiqarishmoqda edi. Men halak bo‘lib Oqbaliqu imlaganim-implagan, koshki qarasa.

“Duq” etgan tovushdan cho‘chib tushdim. So‘ng boyagi baliqning ingragani eshitildi. Men nima bo‘layotganiga tushunolmay karaxt edim.

Yana to‘rni suvga tiqib, bir baliqni tashqariga chiqarishdi. Yana “duq” etgan tovush. Yana far-yod. Uchinchi marta ham shu hol takrorlandi. Men hayajondan titray boshladim. Tilimda faqat bir so‘z: kechikyapti... kechikyapti...

Navbat menga keldi. To‘r sirtmoqday boshimdan o‘tib, meni o‘z domiga oldi. Sheriklarimning ko‘zlari qo‘rquvdan olayib ketgan edi. Meni hovuzdan chiqarib olishayotganda to‘rdan tomchilayotgan suvlar ko‘zimga go‘yo umrimning so‘nggi tomchilariday ko‘rinib ketdi. Mana, hovuzning baland shaffof devorlari ham pastda qoldi. To‘r ichidan qaraganda, dunyo katak-katak, to‘g‘rirog‘i, parcha-parcha bo‘lib ko‘rinar ekan.

Meni havoda ikki soniya muallaq ushlab turishdi. Shundoqqina tumshug'imning ostida bir to'da odamlar menga qarab turar, biroq hech birining xayoliga meni qutqarish mumkinligi kelmas edi. Qanday dahshat! Shu ikki soniya ichida nigohlarim qarshimdagi barcha odamlarning yuzlariga qo'nib chiqishga ulgurdi... Qanisan, do'stginam? Qayerdasan, ey qadrdon yigit!

Baquvvat qo'llar meni to'rning ichidan olib, peshtaxta ustiga yotqizdi. Butun a'zoyi badanim titrar, yuragimning zarbi mengagina emas, odamlarga ham eshitalayotganday edi. So'nggi bor xaloyiqqa qaradim. Ko'zlarim yonma-yon hovuzdan menga tikilib turgan Oqbaliqqa tushdi. Nimadir tomog'imga kelib tiqildi. Xayriyat, nigohlarimiz uchrashadigan lahzalar bor ekan.

– Oqbaliq! Oqbaliq! Qo'rqmagin! Hammasi yaxshi bo'ladi! Meni eshityapsanmi? Hovuz bo'yidagi yigit bor-ku, esingdami? U albatta keladi! Menga ishon! U bizni bu qo'rqinchli joylardan olib ketadi!

Men peshtaxta ustida tipirchilagan ko'yi ovozimning boricha baqirar edim. Baqirsam, go'yo chirt uzilishga tayyor turgan umid rishtalari meni qaytadan hayotga bog'laydiganday edi. Baqirsam, o'sha xaloskor yigit ovozimni eshitib,

yonimga yetib keladiganday edi... Afsus, odamlar baliqlarning tili borligidan, ularga o'xshab gapira olishimizdan bexabar, ular bizni soqov jonzotlar deb bilishadi. Holbuki, baliqlar ham shivirleydi, qichqiradi, kuladi, yig'laydi... Lekin odamlar bizni eshitmaydi.

– Oqbalıq! Siqılma! Biz uyimizga yana qaytamiz!

Negadir u shisha devorning oldidan nari ketmay tosh qotib turar, ko'zlarida qalqqan ismsiz iztirob yuragimni o'rtayotgandi.

– Oqbalıq! Mendan xavotir olma! Qarab tur, eski do'stimiz hozir shu olomon orasidan otilib chiqadi-yu hamma narsa o'zgaradi! Oqbalıq! Mening senga aytadigan gaplarim bor! Bilasanmi, men... Men seni...

Shu on Oqbalıqning mungli ko'zlari menga emas, boshqa nuqtaga qadalganini sezib qoldim. U o'sha nuqtaga o'kinch va alam bilan shunday termulayotgan ediki, bunga biror tirik jon bardosh berishi mumkin emasday edi. Oqbalıqning nigohlari meni ushlab turgan odamda edi. Men ham hayron bo'lib unga qaradim.

Tepamda... hovuz bo'yidagi o'sha yigit turardi... Kuchli qo'llarining biri bilan meni qisib mahkam ushladi, qalin taxta ko'targan ikkinchi qo'li esa zarb bilan to'g'ri boshimga kelayotgan edi...

Tilimda aylanmay qolgan so‘nggi so‘zlarimni hech kim eshitmadi: “Oqbaliq, men seni...”

– Duq... duq...

OQMAYDIGAN TOSH

Eshikning qattiq taqillashi yana yurakda umid uyg‘otdi. Opa bir oyog‘iga kovush ilar-ilmas eshikka qarab yugurdi va jon holatda ochdi.

– Opa, jon opa, Xudo xayringizni bersin! Bosh urmagan eshigim ham, teshigim ham qolmadi. Bu bolamdan ham ayrilmay. Istasangiz tun-u kun eshigingizni supuray. Faqat bir piyola un berib turing. Hozir o‘lib qoladi, jon opa.

Qadoq qo‘llarida sarg‘aygan piyolani tutgan-cha ona yerga cho‘kkaladi. Qurqshagan lablarini ko‘z yoshlari namladi. Mutahhara opa uning qo‘lida dir-dir titrayotgan piyolani oldi. Og‘ilxona yonidagi xonaga kirdi va eski yog‘och sandiq ichidan og‘zi tugun qilingan xaltachani ochdi...

– Ilohim...ilohim... nimaiki niyat qilgan bo‘lsangiz hamma-hammasiga yeting! Farzandlaringizni rohatini ko‘ring! Kimingiz urushdan qaytmagan bo‘lsa, to‘rt muchali sog‘ bo‘lib qaytsin. Rahmat... rahmat, opajon! Xudodan qaytsin, ilohim, rahmat, – titragan ovoz qadam bilan birga olislay boshladi. Opa og‘ir xo‘rsindi. Darvozasidan to‘rt-besh

qadam naridagi supasiga parishonxayollik bilan qo'ndi. "Farzandlaringizning rohatini ko'ring! Kimingiz urushdan qaytmagan bo'lsa, to'rt mu-chali sog' bo'lib qaytsin". Xayolini chalg'itishga har chandon urinmasin, shu jumla quloqlari osti-da jaranglab turdi. Mana, o'ttiz yil bo'libdiki, Xu-do farzand bermadi. Ustiga-ustak birgina ukasi urushga ketganidan beri na biror xabar, na xat bor. "Tiq" etgan tovush eshitilsa bo'ldi, opa beixtiyor ukasi kirib keladigandek, kulga aylanayotgan ishonch bilan, uzilmagan umid bilan peshvozga yuguradi. Etagidan tortayotgan yetti yoshlar chamasidagi qizcha opaning xayollarini bir zumga bo'lsa-da tarqatib yubordi:

– Amma, qarang. O'rgatganingizday mana bu, yana mana bu joylarini o'qib bo'ldim. Sizga boshidan o'qib beraymi?

Amma beixtiyor bosh irg'adi. Qizcha qo'lida ezg'ilangan qog'ozga qaradi-da, boshladi:

– Alif, Be, Te, Se...

Ikki qo'lida bo'sh chelak ko'targan yosh juvon yonida qadamlarini sanayotgan o'g'li bilan kirib keldi-da, Mutahhara opaning yoniga cho'kdi. Na-fasini bir oz rostlagach:

– Opajon, qo'shni qishloqdagi ariq suvi ham quribdi. Ertaga keladi deyishsa ham, odamlar chelak bilan ariq boshida poylab o'tirishibdi,

– dedi qo‘li bilan peshonasini, yuzini artarkan. Mutahhara opa avvaliga ko‘zini bir muddat oyog‘i ostida uymalanib yurgan chumolilardan uzmadi. So‘ng qora ko‘z jiyanlariga, keliniga bir-bir qaradida, past ohangda gap boshladi:

– Kelin, uydagilarni, qishloqdagilarni ham ko‘rmaganingizga qancha yillar bo‘ldi. Sog‘ingandirsiz. Yaqinlarni yo‘qlab turish kerak. Eshitishimcha, akangizning xotini og‘iroyoq ekan, issiq-sovug‘iga qarashib, istaganingizcha yurib keling. Jiyanlar ham bir yayrashsin. Yana juda uzoq qolib ketmanglar-a, meni sog‘intirib. Agar shu kunlar ichida eringizdan xabar kelsa, albatta, bildiraman. – Mutahhara opa ko‘zini yana yerga qaratdi. Bu safar nigohi uzilmadi.

Mo‘tabar bolalariga bir paytlar yangiday tuyilgan qizlik ko‘ylagini kiyib chiqdi, tuguniga ul-bul tugdi, farzandlarining ust-boshini qoqdi. Tez orada qaytishlarini aytib, xayrlashgach, bir qo‘lida o‘g‘li Isomiddin, bir qo‘lida Xursandoyni yetaklaganicha yo‘lga tushdi. Yo‘l og‘irlashib bora-yotgan qadamlar og‘rig‘idan bir ingranib qo‘ydi.

Qosh qorayib, chigirtkalar o‘z mushoirasini boshlagan paytda qishloq tanish qadamlarni, tanish isni tuydi. Bir paytlar bag‘rida chopib yurgan qizi-ku! Ota-onasi hayotligida qulf yuzini ko‘rmagan eshikni chandon taqillatyaptiki, javoban

sas-sado yo‘q. Hartugur, mana, qadam tovushlari eshitildi.

– Kechasi jin chalgan kim bo‘ldiykin-a? Kim u?

– Yanga, men Mo‘tabarman, oching.

– Qaysi Mo‘tabar?.. Voy o‘lay, egachi, sizmisiz, hozir, shoshmang.

Nihoyat eshik kishandan ozod etildi. Ichkaridan esnagancha aka chiqib keldi.

– Valaykum assalom. Ahvollaring yaxshimi, uydagilar tinchmi? Kuyovdan haliyam xabar yo‘q-mi? Shuncha yil o‘tdi-ya. Mana, urushga ketganlar dashtoq bo‘lsa ham, ko‘r bo‘lsa ham, kar bo‘lsa ham qaytdi. Hech bo‘lmaganda o‘limi haqida xabar keldi. E, mayli, qo‘y o‘shani. O‘zingdan gapir-chi. Haliyam o‘sha achchiq tosh bilan yashayapsanmi?

Oy, kuni yaqin qolgan yanga g‘ingshishiga qaramay, qizchani zo‘rg‘a sudrab, ichkari uyga olib kirdi. Isomiddin ular ketidan ergashdi. Aka-singil tun siyohi oqib ketgunga qadar suhbatlashishar ekan, oy Mo‘tabarning yuzida billurday yaltirab tushayotgan yosh donachalarida o‘z aksini qidirish bilan band bo‘ldi.

Supurgining yerga aytayotgan shiviridan Xadicha uyg‘onib ketdi. Yon-veriga qarasa, hech kim yo‘q. O‘rnidan jon holatda turdi-yu derazaga qarab chopdi:

– Ona, onajon!

– O‘zi jimittaygina-yu, ovozi baloning o‘qiday. Yuragimni yording-ku, muncha chirillaysan. Nima, onang dadangni go‘riga ketarmidi? Shu yerda, sigir sog‘yapti, – dedi yanga qo‘lini beliga tirab, xalaqit qilayotgan qornini avaylagancha yer supurar ekan. Qiz xijolatomuz boshini ichkariga oldi. Chetidan paxtasi titilib chiqqan, o‘zi uxlagan ko‘rpachasini to‘rt buklab taxlagach, hovliga chiqdi. Yangasiga salom berdi-da, qo‘lidan supurgini oldi. Yanga supurgini berar ekan, qizning bo‘y-bastiga ko‘z yugurtirib chiqdi. Shu payt qo‘lida sut to‘lgan kichik chelak bilan Mo‘tabar paydo bo‘ldi.

– Bergan tarbiyangizga balli, yuzini ham yuvmay qo‘limdan supurgini oldi-ya, – dedi iljayib yanga. Ona qiziga mamnun jilmaydi-da:

– Yanga, qolganlar ko‘rinmaydi? Kecha akam bilan anchagacha gaplashib chiqqanim uchun uxlab qolibman.

– Qachoniydi paxtaga chiqib ketishgani. Akangiz shu bilan hali uxlagani yo‘q. Bu yerda zerikmasin deb, o‘g‘lingizni ham qo‘shib yubordim. Eshitdingizmi, kechga opalaringiz kelisharkan. Sizni rosa sog‘inishgan-da.

Mo‘tabar ma‘yus tabassumlandi. Kecha akasining sanchilgan gapi yuragida yana bir qo‘zg‘alib qo‘ydi.

Quyosh asta yoyilib, paxta chanoqlari ichiga yashirindi. Cho‘pon qo‘ylari bilan birga ahli qishloq ham o‘z uylariga tarqashdi. Shulardan yettitasi bizga tanish uyga kirib ketishdi.

Dasturxon keng yozilib, hamma jamuljam bo‘ldi. Dasturxonda yeyishga ko‘p narsa bo‘lmagani uchun urush va undan qaytgan-qaytmaganlar mavzusi og‘izlarda uzoq chaynaldi. Tog‘aning qizlari bilan birga Xadicha ariq bo‘yiga, tog‘a esa jiyani Isomiddin bilan birga og‘ilxonaga qarab ketdi. Katta opa qolganlarni ko‘zi bilan ichkari uyga imladi. Hamma qizlar xonada yig‘ilgach, deraza va eshiklari yopildi. Mo‘tabar suhbat mavzusini sezgani uchun ko‘zidan shashqator to‘kilib tushayotgan bevosh yoshlarini boshqara olmadi. Katta opa bir yo‘taldi-da, gap boshladi:

– Xullas, eshitib-ko‘rib yurganingday, urush hammaning uyini, jigarini quritdi. Ro‘zg‘orga deb yiqqan narsalarimizni frontga berib bo‘lganmiz. Yo‘qchilikdan ayrimlar bolalarini sotishyapti. Kunjara yeb, o‘t yeb shishib, ochlikdan o‘lganlarni ko‘ryapsizlar. Hammamiz ham rahmatlik otamning orttirgan obro‘lari, qilgan xizmatlari evaziga amal-taqal qilib yuribmiz. Mana, urush tugaganiga ikki yil bo‘ldi, eringni na o‘ligini, na tirigini bilamiz. Gulday umringni shuncha sar-

g'aytirganing yetadi... Gapning po'stkallasini aytadigan bo'lsak, Qulmat mulla anchadan beri seni so'rab yuruvdi. Yaqinda ikkinchi xotini ham o'ldi. Hozirda unga o'xshagan mullalarning kuni tuqqan. Keyinchalik seni kim ham so'rab keldi? Yo'q dema, masalani tezroq hal qilaylik. Avvalambor o'zing uchun, keyin biz uchun ham rozi bo'l.

Mo'tabar tizzalari orasiga boshini olganча ho'ngrab yubordi.

– Axir... axir u “Albatta qaytaman” deb va'da bergan. Asli hozirgacha uning xotiralari bilan tirikman. Shahardagi opam bilan yoznam ham shu ikki yodgorimda ukasining qiyofasini ko'rib ovunib yurishibdi. Ularning oldida nima degan odam bo'laman? – yig'i aralash hiqillab gapirdi Mo'tabar.

– E, iltimos, faqat o'sha Xudo qarg'aganlarni gapirma bizga. Bolasi bo'lmagandan keyin sening bolalaringga qaraydi-da suq bilan. O'sha er-xotin seni o'zi bu yerlardan qadamingni uzdirib qo'yishgan.

– Bekorlarni aytibsiz, – ko'zida yoshi bilan o'sh-qirdi katta opaga Mo'tabar. – O'zim istamaganman. Senlarni mana shu gaplaringni sezib, qo'rqardim kelishga. Ularni aralashtirmang!

– Voy-vo'! Toza o'zgaribsан-ku. Bo'ldi, yosh

qizlarday ko'p nozlanma! Biz sen uchun ahamiyatsiz bo'lsak, hech yo'qsa bolalaringni o'yla! Sen ketgach, ularni o'z farzandlarimizday parvarishlaymiz, bu yerda zerikishmaydi. Jin ursin, tushunsang-chi, buning evaziga Qulmat bizlarga qarashib turadigan bo'larkan. Yoki bolalaringni bag'ringda ochlikdan shishib o'lganini tomosha qilishni istaysanmi-a, juvonmarg, gapirsang-chi?!

Mo'tabar endi o'kirib yig'lay boshladi. Shu orada opalar nim tabassum bilan ko'z urishtirib olishdi. O'rtanchasi ham g'udranib qo'ydi:

– Oyoqsiz erim urushdan qaytmaganida o'zim bilardim. Seni qara-yu.

Mo'tabar qahr bilan boshini ko'tarib nimadir demoqchi bo'ldi-yu, bo'g'ziga tiqilib kelayotgan yig'i bunga yo'l qo'ymadi.

Mana shu vaqtda qishloqda Folchi dashtoqning suruvidagi ona qo'yni bo'rilar bo'g'izlab ketibdi, degan gap tarqalardi.

Ertasiga odamlar, ayniqsa, ayollar yanada ko'paydi. Hamma u yoqdan bu yoqqa qatnardi. Shu orada Xadicha turtilla-surtilla barcha o'zini urayotgan xonaga bosh suqdi. Qarasa, atrofida girdi kapalak bo'layotganlar onasiga chiroyli ko'ylak kiydirishgan, boshiga uzun oq ro'mol tashlashgan, faqat yuziga tabassum yugurtira

olishmagan, tomayotgan yoshini to‘xtatisholmagan edi. Qiz onani bunday holatda ko‘rib quchoqlab olgisi keldi. Ammo tiqilinchda o‘tolmadi, so‘ng quvonganidan baralla:

– Onajon, chiroyli bo‘lib ketibsiz. Demak, dadam kelibdilar-da! Esizdami, qo‘shnimiz Soraning dadasi kelganida onasi ham shunday kiyim kiygandi. Ur-a, endi dadam meni maktabga olib boradilar!

O‘tirganlardan kimdir “Tasavvur qilyapman, Qulmat mullani”, dedi. Yengil kulgi ko‘tarildi. Mo‘tabar silkinib-silkinib yig‘ladi va qizini bazo‘r yoniga chaqirdi. Xadichani o‘tkazib yuborishdi. Ona qizini quchog‘idan chiqib ketishini bilib mahkam quchoqladi. “Qizim, qizginam, kechir meni... meni kechiringlar. Sizlarni juda ham yaxshi ko‘raman! Shuni unutmanglar – men uchun ham, otang uchun ham yashashingiz kerak!..” Mo‘tabar yig‘i aralash qizining qulog‘iga shivirladi. Kimdir bir siltashda qizni tortib, qo‘lidan sudragancha tashqariga asta itarib yubordi. Xadicha alam to‘lanigohi bilan bu jafokashga qaradi. Katta xolasi bir irjaydi-yu yana g‘oyib bo‘ldi. Kimlardir uni turtib-turtib o‘tib ketdi. Bir etak paxta to‘lar vaqt o‘tgach, ayollar to‘da bo‘lib ichkaridan chiqishdi. Ayollar qiy-chuvi bilan qadamlar ham asta uzoqlasha

boshladi. Bola-baqra ular ketidan yugurishdi, qiyqirishdi. Xadicha ham ular ketidan yugurdi. Ammo... o'rtadagi oppoq ro'molli kim ekanligini anglagach, yo'l o'rtasida qotib qoldi. Bolaligi esa onasiga ergashib ketdi.

Yoshi kattalar to'da ketidan oldingiday tosh irg'itib qo'yishdi. Bu qiziq holatni ko'rgan Isomiddin ham ularga taqlidan tosh otdi-da, onasiga bu qiziq odat haqida gapirib bergani uyga kirib ketdi...

Osmon qora chodirini tikdi. Chodirining yirtiq joylariga yulduzlardan yamoq soldi. Ammo jajji yurakning kemtik joyiga soladigan yamoq topilmadi. Kechga yaqin kechagilar yana yig'ilishdi. Faqat kenja singilsiz. Tog'a gap boshladi:

– Isomiddin, Xadicha, endi onangiz ham, otangiz ham biz bo'lamiz. Bundan keyin bizning chizgan chiziqdan chiqish bo'lmasin! Xo'sh... Ismat, sen hozir mana bu o'rtancha xolang bilan jo'naysan. Eri urushga oyog'ini tashlab kelgan. Og'ir-yengil yumushlariga qarashib yurasan. Xadicha qizim, sen biz bilan qolasan. Yangangni ahvolini ko'rib turibsan, opalaring paxtaga ketganda... xullas, sengayam shu gap. Bo'ldi, gap tamom. Omin!

– Lekin, – Isomiddin gapining keskin ohanigidan o'zi ham seskandi-yu pastroq tovush bilan

davom ettirdi. – Lekin... ammam singlingni yoningdan ayirma, unga doim ko‘z-quloq bo‘l, degandilar, – bir yutoqdi-yu, – onam ham, – dedi.

– O‘, tillari biyron-ku! Bu uyda qarorni faqat men qabul qilaman, tushundingmi? Ortiqcha gap bo‘lmasin! O‘sha ammanni seni... Rahmat deyish o‘rniga... – o‘shqirdi tog‘a. So‘ng tezda yuziga fотиha tortildi. Tish-tishlarga qattiq qisildi. Qiz indamas, ma‘yuslangan ko‘zlarini tomdagi musichadan uzmasdi. Aka-singil xayrlashgach, ayrilishdi.

Ilk tong otdi. Onasiz, akasiz ilk tong otdi. Badaniga nimaningdir qattiq tegishidan Xadicha uyg‘onib ketdi. Tepasida yangasi biqiniga oyoqini niqtab turardi:

– Tur-ey, molga o‘xshab yotaverarkansan-da. Ko‘chani man supuraymi, a? Keyin paqirlarga suv to‘ldir!

Qiz uyatdan o‘rnidan dik etib turdi-yu tandir yonida yotgan bo‘yi tengi keladigan supurgini va g‘adir-budur tunuka chelakni oldi. Ko‘cha labidagi ariqdan suv olib sepdi, supurdi. Kecha daraxtidan ayrilgan barglarni bir joyga to‘pladida, tilingani uchun achishayotgan qo‘llarini puf-pufladi. Yanga derazadan ovozini balandlatdi:

– Sani qoldirgan man o‘lay, holing bitta hovli supurishlik ekan-ku. Tezda mana bu ikki satilni

ol, paxtazorga yetmasingdan anhor bor, o'sha yerdan suv olib kel. Ariqniki loyqa. Imillama!

Xadicha yangasi ko'rsatgan joydan chelaklarni oldi-da, chiqib ketdi. Borsa, anhor bo'yida sochlarini suvga solgancha majnuntol xayolga berilib o'ltiribdi. Anhor uning har aksini yangilab, "Dunyodagi eng go'zali – sen" deb harchand ishontirmasin, shamol sochlarini silab, erkalab qancha ertak aytmasin, nima uchundir boshi egik. Xadicha chelaklarni daraxt yoniga qo'ydi. Majnuntolning tollarini siypab, "Seni ham onang tashlab ketdimi?", dedi. Anhor ham, shamol ham savoliga javob topgandek bo'ldi. Qiz chelakning birini olib asta suvga soldi. Oqim shashtiga qizning kuchi yetmadi. Chelak qirg'oq bo'ylab oqa ketdi. Xadicha dod degancha suv yoqalab ketidan yugurdi. Xayriyat, chelak anhor yuzasiga tegar-tegmas osilib turgan daraxt shoxiga ilinib qolibdi. Yengil nafas tortdi-da, darrov chelakni to'lib qolgan suvi bilan ko'tardi. Shunda daraxt uchida turgan musichaga ko'zi tushdi. Allaqanday qo'rquv bilan chelakning og'irligini sezmay ancha yergacha ko'tarib bordi. So'ng nafas rostlash uchun yerga qo'ydi. Yana ko'tarmoqchi bo'lgandi, uddalay olmadi. Nihoyat, ikki qo'llab, zo'r-bazo'r ko'tarib, bir necha qadam yurdi. Shu alfozda ikki

chelakni ham tashidi. Keyin panaroq joyga o'tdida, qo'lidagi va yuragidagi og'riqning zo'ridan o'ksinib-o'ksinib yig'ladi. Taqdiri tanlagan yo'lni bilib yig'ladi.

– Xadicha, qay go'rdasan?

Xadicha chang ingan yenglari bilan yuzini shosha-pisha arttdi-da, chaqiriqqa yuzlandi.

– Mana buni paxtazorga olib borib tog'angga berasan. Juda imillarkansan. Agar ichini ochganningni bilsam, yer bilan bir qilaman. Tez qimir!'

Xadicha darhol yangasining qo'lidan tugunni olgan ham ediki, yoqimli hid ammasini, onasini yoniga qaytargandek bo'ldi. Qorni g'uldiradi. Yutinib-yutinib paxtazorga jo'nadi. Tog'asini paxtalar ichida ko'milib ketgan odamlar orasidan zo'rg'a topdi.

Bo'sh tugunni olib qaytarkan, bexosdan ko'z oldi qorong'ulashib, devorga suyanib qoldi. Istamasa-da, chang qo'ngan yuzini tomchi yoshlar yuvib tusha boshladi. Qo'lini beliga tiragancha qo'shnisinikiga gap bergani chiqayotgan yanga uni ko'rib yuragi yorilayozdi.

– Uyg'a bor-da, mizg'ib ol. Xontaxta ustiga choy-noningni qo'ydim. Buguncha yetar. Nimjonligini-chi, – dedi xavotirli ohangda.

Tush ko'rди. Istaganidek ammasini, onasini emas – musichani. Musicha unga qarab "ku-ku"-

labdi. So'ng allaqayerdan tumshug'ida o'zinikidek qanot olib kelib, uning yelkasiga tashlabdi. Qiz shivir-shivirdan uyg'onib ketdi. "Qo'rqib ketdim, o'lib qoladimi deb. Hartigur joni qattig'akan". "Senam ur, desa ko'zini chiqarma-da, ahmoq. Ko'nikkuncha, aya". Qiz o'rnidan turib, hovliga alangladi.

– Jim! Kel, qizim. Hozirgina yangang chaq-qongina chiqib qoldi, deb maqtayotuvdi. Mana buni ol-chi, – bir bosh uzumdan uzib berdi tog'a.

Ertasiga o'zi zo'rg'a omonat turgan dunyo o'z bag'ridan yana ikki insonga joy berdi. Yanga yengil bo'ldi. Egizak Hasan-Husan o'g'il ko'rdi. Keldi- ketdi boshlanib, nihoyasiga ham yetdi.

– Tashvishlar bilan bo'lib indamadim. Seni quchog'imda erkalab yotish uchun olib qolganim yo'q. Kuz kelyapti. Bundan keyin har ertalab dashtga tezak terгани chiqasan. Peshingacha xaltani to'ldir. Tushundingmi, pismiqlik?

Xadicha sekingina bosh irg'ab qo'ydi.

Ertasiga Xadicha xaltani oldi-yu dashtga qarab jo'nadi. Ham mehrini, ham qahrini sochib turguvchi quyosh bilan yolg'iz qoldi. Uzoq yurdi. Mana, issiqda tarashaday qotib qolgan tezaklarni bazo'r olib, xaltasiga sola boshladi. Ana, yana bittasi. Lekin bular kamlik qiladi. Yurib-yurib boshqa bir qishloqning biqinidan chiqdi.

– Iya, – ko‘zini qattiq yumib, yana ochdi.
– Axir... ana, onam-ku! Onajon! – xaltasini chinor daraxtining yoniga qo‘ydi-da, yugura ketdi. Mo‘tabar orqasidan chiqqan mallarang qizni qo‘liga oldi-da, ikki betidan o‘pdi. So‘ng qaytib g‘ishtin devorli uyga kirib ketdi. Xadicha qadamlarini sekinlatdi-da, to‘xtadi. Darvozaga uzoq tikildi. Ko‘zidagi mo‘ltirab turgan yosh ham o‘sha devorga uzoq tikildi. Qiz iziga shasht bilan qaytdi-da, xaltani sudrab yo‘liga ravona bo‘ldi.

– Tavba, yoz oxirigayam o‘xshamaydi. Suv sepib bo‘ldingmi? Ichkariga kir-da, beshiklarni tebrat. Juvonmarg, tez bo‘l!

Yig‘i tovushi eshitildi. Qiz o‘zini xonaga otdi va ikki beshik orasiga o‘tirib, bir qo‘lini unisiga, bir qo‘lini bunisiga qo‘yib tebrata boshladi. Qiz ko‘zini goh unisiga, goh bunisiga qadar ekan, o‘z o‘rnida onasini tasavvur qildi. Ancha fursat o‘tgach, yangi mehmonlar barmoqchalarini og‘izlariga tiqqancha uxlab qolishdi. Xadichaning ko‘zi endi ilinmoqchi ham ediki, haytovur, hovlidan kechki ovqatga chaqirib qolishdi. Yangasi bilan vaqtincha o‘rin almashdi. Chiqsa, hamma uxlashga kirib ketgan, ammo nasibasi qolgan. Birozdan so‘ng ichkaridan chaqiriq bo‘ldi. Xadicha yana ikki beshik o‘rtasida, qo‘llari u yoqdan-bu yoqqa borib keldi.

Boshiga tushgan tarsakidan Xadicha sapchib uyg'ondi.

– Yer yutsin seni, yergina yutsin! Ochlikdan o'lgur! Ko'zing qayoqda? Bularni yig'lashini qara. Qulog'ing kesilgur, eshitmayapsanmi? Shunday shirin uyqu buzildi-ya. Aniq, senga onang o'rgatib ketgan, – javrab-javrab chiqib ketdi yanga. Tun derazadan sovuqroq oh urib qo'ydi. “Allayo, alla”, deb beshik tebranishiga mos aytila boshlandi.

Tong erinibgina ko'zini ochdi. Chaqaloqlar allaqachon uyquga ketgan bo'lsa-da, beshik tinim bilmayapti. Quyosh zar kokillarini yoygan ham ediki, yanga kirib keldi:

– Tuxum bosgan tovuqday o'tiribsanmi? – miyig'ida kuldi. – Tur, dashtga qarab jo'na. Boshqalar terib ketmasin yana.

Xadicha o'rnidan turishga bir intildi-da, madori yetmay yana o'tirib qoldi.

– Ey, menga bunaqa qiliqlaring o'tmaydi. Indamaganimga o'zingdan ketding-ku, – yanga zardasi qaynab, Xadichaning qo'lidan tortqilab sudray boshladi.

Xadicha tezak hidiga ancha ko'nikdi, jirkanmaydigan ham bo'ldi. Faqat o'sha qishloqning o'sha uyi yaqiniga borib, uzoq termulishni ham kanda qilmadi. Qaytganidan so'ng esa yana o'sha ikki beshik, yana o'sha oraliq.

Mana, bugun ham “tezak terim”iga qarab yo‘l oldi. Anchasini tikonlar ichidan topdi. Bu safar tikonlar qo‘lini qonatmadi. Ammo boshi yana aylanib, lablari quruqshab, madorsiz yiqildi. Qiz toshga boshini qo‘ygancha, bir muddat mizg‘ib oldi. So‘ng yana o‘sha g‘ishtin uy tomon yuzlandi.

“Yo‘q, bundan keyin bormayman. Shuncha kunlar ichida bir marta bo‘lsayam xabar olishga, ahvolimni ko‘rishga kelmadilar”.

Suyanib turgan toshi og‘irroq bo‘lib yuragiga ko‘chdi. Dadillangach, uyga – egizaklarning oldiga qaytdi. Beshiklar nisbatan tezroq tebrala boshlandi. Xadicha ularga diqqat bilan razm soldi: “Sizlar ham katta bo‘lgach, urushga borasizlar. Sizlar ham u yerda yo‘qolib ketasiz. Sizlarning xotiningiz ham bolalarini tashlab ketadi. Keyin bolalaringiz menday... menday...” U yog‘iga ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Chaqaloqlar ham jo‘r bo‘lishdi. Bu yig‘i og‘ilxonaga kirib ketgan yangaga eshitilmadi.

Quyosh chiqqach, yana tezak terimiga jo‘nadi. Tarashaday qotgan tappilar xaltaga birin-ketin tushardi. Bu safar Xadicha yanada uzoq kezindi. Qaytishda askarlarday tik turgan teraklardan birining soyasida to‘xtadi. Xaltani yerga qo‘ydi va qontalash bo‘lib qolgan qo‘lchalarini bir-biriga ishqaladi. Shunda ko‘ylagining ichidan shitirlagan

ovoz eshitildi. Ammasi doim ichki choʻntak bilan koʻylak tikardi. Xadicha etagidan bir qarich tepada boʻlgan ichki choʻntagidan buklangan qogʻoz oldi. Ichini ochdi, yuziga tabassum yugurdi. Va lablari asta pichirlay boshladi: “Alif, be, te, se...”

Shu payt yoshiga qaraganda ancha baquvvat boʻlgan moʻysafid chol oʻtib ketayotib, qizchaga qiziqsinib qaradi.

– Assalomu alaykum, ustoz! – Xadicha bu cholga koʻpchilik shunday murojaat qilganini eshitgan edi.

– Vaalaykum assalom, qizim! Baraka toping. Ovozingizni eshitib qoldim. Qoʻlingizdagini boshqatdan oʻqib koʻring qani.

Qiz tetiklashdi. Entikib boshidan boshladi va toʻxtamasdan oxiriga yetkazdi.

– Bale, qizim! Savodingiz bor ekan-ku. Ustozingiz kim boʻladilar?

– Mutahhara ammam.

Chol koʻzini bir nuqtaga qadab turdi. Bunday ayolni eslolmagach, yana savol qotdi:

– Yaxshi-yaxshi. Kimning qizisan?

Qiz yuziga darrov maʼyuslik indi. Koʻzini yerga qadadi.

– Dadamning qiziman. Ammo... urushdan qaytmayaptilar. Shuning uchun hozir ammam-

ning qiziman. Lekin... – Xadicha ko‘ziga quyilib kelgan yoshni bazo‘r ushlab qoldi. Chol kulimsirab gapida davom etdi:

– Qizim, maktabga borishni istaysanmi? O‘zingga o‘xshagan dugonalaring bilan birga o‘qiysan.

Endi yig‘ilib turgan yosh birin-ketin dumalay boshladi.

– Ha, – yig‘lamsiragancha kuldi Xadicha, – ha, juda-juda istayman.

Cholni qattiq quchoqlab olgisi keldi-yu, iymandi.

– Erta-indin o‘qish boshlanadi. Qayerda yashaysan, qizim? Uydagilaring bilan gaplashay?

– Huv anavi yerda, – qo‘li bilan ko‘rsatganiga ko‘ngli to‘lmay, yugurgilab ketdi. Darvoza oldiga yetgach:

– Mana shu yerda yashayman, – dedi.

Chol boshini bir-ikki irg‘ab qo‘ygach, qiz uning oldiga yana qaytdi.

– E, ha, bo‘ldi-bo‘ldi, Temirqulning shaharlik jiyani ekansan-ku. Unda ertaga albatta o‘taman.

Xadicha xursandligidan chelagining og‘irligini sezmagani holda uyiga qarab jo‘nadi. Yangasi hali ichkarida ekanligidan foydalanib, hovliga suv sepdi. Qo‘llari shilinishini o‘ylamay, supurdi. So‘ng nafasini rostlagani yerga cho‘k tushdi.

– Xadicha! – deb baqirgancha ichkaridan yanga chiqdi.

– Shu yerdaman, yanga.

Yanga bir hovliga, bir qizga, bir uning yuzidagi tabassumga qaradi-da, g‘ashlandi.

– Bor, tebratgani kir.

Xadicha cheksiz xayollarga berilgancha, ichkariga kirib ketdi. Allaning o‘rniga tuni bilan egizaklarga maktab haqida, ustoz – chol haqida, orzulari haqida aytib chiqdi.

Yangasi uyg‘ongach, choyni ham ichmay xaltasi bilan dashtga ravona bo‘ldi. U yoqdan bu yoqqa yugurib, xaltasini tezroq to‘ldirishga intildi. Qiz u yo‘g‘ida ustoz – cholning borib qolishidan xavfsirardi. Ana, bo‘ldi. Xadicha orzulari, xayollari bilan birga uy tomon yugura ketdi. Shunchalik tez chopardiki, uni yo‘ldan to‘xtatishga urinayotgan toshlarga bir-ikki qoqilib ham oldi. Entikib-entikib nafas olgancha darvozadan ichkari kirdi va dahshatdan ko‘zlari kosasidan chiqib ketay dedi.

– Ha, itning bolasi! Kel, beriroq kel. – Yanga qo‘lida qizigan kosov bilan Xadichani oldiga imlardi.

– San eshakni yuking yengillik qilibdi shekilli, hayvon! Bizlar nomini eshitmagan maktabda o‘qi-

gilari kelib qolibdi-da. O'qimishli qiz bo'lgingiz keldimi, a? Mana senga maktab! Mana senga kitob! Mana senga... – Yanga vajohat bilan qizning oyoq-qo'llariga qizigan kosov bilan ura ketdi.

– Laxta-laxta qon yutgur! Men aytdim, nega bu kechadan beri dikonglab qoldi deb! Ichidan pishgan iflos, pismiq ekansan-ku. O'qishni bilanman degin! Qani o'sha qog'oz, qani? Chiyillama, it, chiyillama! Ber tez!

Xadicha yerga yiqilib tushdi, og'riq zarbidan tomayotgan yoshlari tuproqqa qorishdi. Etagi ostidan qog'ozni chiqarib darrov uzatdi.

– Tavba, shu mushtday boshiga buncha ayyorlig-ey! Shaytonning sutini ichgansan, sen chayon. Mana! Mana senga “alif”! Mana senga “be”! – Joni boricha buklangan qog'ozni maydalab tashladi.

– Boshingni ko'tar! Och og'zingni, och deyapman, padarlan'ati! Och!.. Ha, endi mana bularni yut! Og'zingda bitta bo'laginiyam ko'rmay... Ha, ana shunday... Mana senga saboq. Hiqillama. Yig'lama deyapman. Endi tur o'rningdan, tur! – yanga Xadichani qo'lidan sudragancha og'ilxona biqinidagi kichik kulbaga olib kirdi. Ichkaridan eshikni mahkam yopdi.

– Manimcha, sanlarning otang tirik. Sanlardan qochish uchun ham urushga jo'nagan.

Bilgan, hammasini bilgan. Ilonda yog‘ qoldimikan, yo barini yalab bo‘ldilaringmi? Menga qara, yashshamagur! Ko‘zimga qara! – qizning yuziga shapatiladi. – Kechroq anavi chirigan chol yana keladi. Sandan umi, tog‘angmi, maktabda o‘qiging kelyaptimi, deb so‘rashsa, yo‘q deysan! Tushundingmi? Yo‘q, istamayman, deysan. Agar ortiqcha bir og‘iz gapirib ko‘rgin, bugungidan beshbattar qilaman, beshbattar. Meni tushundingmi? – Boya kosov kuydirgan yeridan yanga qattiq chimchilab so‘radi.

Qiz og‘riqdan dod degancha, yangasining oyog‘iga shilq etib tushdi. Va holsiz: “Tushundim, hammasini tushundim. Kechiring”, deya yig‘i aralash pichirlay boshladi. Ko‘ngli joyiga tushgan yanga xonani tark etdi. Og‘ilxonadagi sigir ancha vaqtgacha alamli yig‘i ovozini eshitib yotdi.

Oy dog‘larini anhorga ko‘rsatgani yana keldi. Yanga qo‘lidagi kosov izlari ko‘rinmasligi uchun Xadichaga yangi uzun choponcha berdi. Temirqul xotini bilan allanimalarni shivirlashgach, Xadichaga g‘ing demadi. Shu payt darvoza taqillab, “Temirqulbek, uydamisiz?” degan tanish ovoz yangradi.

– Ustoz, qani keling, marhamat. To‘rdan o‘ting, to‘rdan, – supaga joy ko‘rsatdi Temirqul.

– Aslo ovora bo‘lmang, tashrifim tez qariydi. Xo‘sh, ertalab aytgan taklifimizga javob olgani keldim. Bolalarimizning savodi chiqsa, o‘zimizga yaxshi. Xadichaning o‘zi nima desa, shu degandingiz. Chamamda, o‘zi ham astoydil istayotgandi.

– U o‘qisa, savodli bo‘lsa, albatta bizga ham yaxshi. Ammo hayronman, ertalabki suhbatimizdan so‘ng mamnun bo‘lib Xadichadan so‘rasam, “To‘g‘ajon, boya ustozga hayajonlanganimdan o‘qishni istayman deb yuboribman. Keyin yaxshilab o‘ylab ko‘rdim. Ilm olishga qiziqishim kuchli emas, ustozning ishonchlarini oqlay olmayman”, desa bo‘ladimi. Qancha urinmay, fikridan qaytarolmadim. Bilasiz, birovning omonati. Ko‘ngliga qaramasak bo‘lmaydi. Yuragi yarimtaga yana ozor berib qo‘ymaylik dedim-u, boshqa gap ochmadim.

Ustoz qovushmagan gaplarni hazm qilolmay og‘rindi. Bir Temirqulga, bir ichkari uy tomon qaradi-da:

– Temirqulbek, qarshi bo‘lmasangiz, Xadichani ko‘ndirishga o‘zim bir harakat qilib ko‘ray. Yosh bo‘lsa-da, zehni juda o‘tkir ekan. Bunaqa yoshlarning qobiliyatini so‘ndirmasligimiz kerak axir.

– Xo‘p bo‘ladi, ustoz. Zora sizning gapingizga ko‘nsa. Qizim Xadicha, bu yoqqa bir kelib ket.

Oldindan tayyorgarlik ko‘rilgani bejiz emas. Uydagilar cholning qaysarligidan xabardor edi. Qiz yonida turgan yanga “Yodingda tut” dedi-yu ortidan yengilgina itardi. Xadicha ko‘zini yerdan uzmagan ko‘yi kattalar qoshiga keldi:

– Assalomu alaykum!

Chol qizning kechagi shijoatidan uvoqcha ham topolmay hayratlandi.

– Qizim, kecha sizning savodingizdan ancha mamnun bo‘ldim. Agar maktabga borsangiz qiziqarli ilmlardan boxabar bo‘lardingiz. Nima sababdan fikringizdan bunchalik tez qaytardingiz? Muammo nimada?

Xadicha yoshlarini ko‘zi bilan yutoqib-yutoqib yutdi. O‘rgatilgan javobni aytmoqchi bo‘ldiyu, tomog‘iga tiqilib kelayotgan yig‘i bunga yo‘l qo‘ymadi. Qiz bir muddat jim qoldi.

– Xadicha, ustozning gaplari to‘g‘ri. Bunchalik tixirlik qilma, – dedi tog‘a.

Xadichaning ko‘zi to‘satdan tog‘asining xon-taxta ostidan o‘qtalib turgan mushtiga tushdi.

– O‘qishni xohlamayman. O‘qimayman. Adashdim. O‘qishni istamayman. – Qiz shu so‘zlarni tinmay bir necha bor takrorladi-da, og‘ir xo‘rsindi.

Ustoz tushundi.

– Hechqisi yo‘q, mayli, qizim. Sizga ruxsat, – dedi chol ma‘yus ohangda. So‘ng qizchani ko‘vushini qidirayotgan oyog‘idagi qizarib chiqqan pufakchalarga, qontalash izlarga beixtiyor ko‘zi tushdi. Agar qiz ko‘nsa, unga yomon bo‘lishini angladi. Darhol o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

– Faqat ranjimang, ustoz. Yosh-da hali. Vaqti kelsa xatosini anglab yetadi.

Chol nafratomuz nigohini hamqishlog‘iga qadadi-da, darvoza tomon shoshildi.

Shu kundan boshlab yanga Xadichani kimlargadir nimalarnidir aytib qo‘ymasin deb, uydan chiqarmay qo‘ydi. Beshik tebratish asnosida kirlarni yuvdirar, o‘tin tashitar va boshqa maydachuyda ishlarni qildiradigan bo‘ldi.

Xadicha beshiklarni tuni bilan qon yutib tebratib chiqar ekan, uning orzularidan, akasidan ayrilishiga, butun azob-uqubatlariga sabab bo‘layotgan ikki chaqaloqqa nafrat bilan boqar, gohida “allayo, alla” so‘zlarini “o‘lgino, o‘lgin” bilan almashlab aytardi. Shu zaylda oradan haftalar o‘tdi.

Kunlarning birida Xadichadan boshqa hamma dasturxon atrofiga yig‘ilib o‘tirganida darvoza qattiq taqilladi. Allaqanday qo‘rquv bir zumda hammaning yuragiga mo‘ralab chiqdi.

Temirqul asta o‘rnidan qo‘zg‘alib, darvoza

tomon yaqinlashdi. Bu orada eshik yana haligiday taqilladi.

– Kim u? – o‘dag‘aylaganday bo‘ldi Temirqul.

– Bizmiz, tog‘a, ochavering.

– E, yetimchanning yarmi-ku bu, – o‘tirganlarga qarab imo qildi-da, zanjirni yecha boshladi.

– Kuchini qaranglar. Nima, otang go‘ridan tirilib ortingdan quvdimi? Ichkariga kir. – Darvozani ochib, ne ko‘z bilan qarasinki, eshik og‘zida bo‘ylari baland, yuzidan qahr tomib turgan, boshiga qoramtir ro‘mol tashlagan amma Iso-middinning qo‘lidan ushlagancha turibdi.

– O‘lganlarni bezovta qilavermang. Sizdaylarning og‘zida nomlari tilga olinib, ruhlari chirqiramasin, – dedi amma.

Temirqul kalovlanib qoldi:

– Ie, keling, keling, opa. Yaxshimisiz? Tog‘am yaxshimilar?.. Xotin, Xizrni yo‘qlasak bo‘lar ekan a?! ...Hozirgina... yo‘g‘e... deyarli har kun sizni eslab, maqtab o‘tiramiz. Qarang...

– Biz yo‘qsillarni har zamonda shunday yo‘qlab turing, aylanay. Ovqat ustiga kelganingizni qarang... Qaynonasi suygan odam ekansiz. O‘ting, dasturxon to‘ri sizniki. Olis yo‘ldan kelgansiz. Yaqinda Xadicha siz o‘rgatgan harflarni maqtanib o‘qib berdi bizga, – yaltoqlandi yanga.

– Xabarim bor, – cho‘rt kesdi amma. – Xadichani chaqiring.

– Mana... mana, hozir... – o‘tda qolgan odamday pitirlardi yanga. – Soqqagul, ammingga ovqat suz. Tez bo‘l.

– Kelinimni sotib pishirgan ovqatingiz hech qachon tomog‘imdan o‘tmaydi. Men sizga chaqiring dedim.

Ammaning qilichdan-da o‘tkir tilidan hamma zirqirardi.

– Unaqa demang, opa. Mo‘tabar sizga kelin bo‘lsa, menga singil. Unga yomonlikni ravo ko‘rmaymiz, – g‘udrandi Temirqul.

Bu gapdan so‘ng amma unga shunday qaradiki, Temirqulning o‘zi yerni yorib kirib ketguday bo‘ldi. Yanga lip etib o‘zini ichkariga urdi.

– Tez kiyimingni yech, bo‘laqol. – Tugundan kichkina qiziga deb tikkan yangi ko‘ylakni oldi, – endi mana buni kiy. Uff, sendan sassiq hid kelyapti. Cho‘mltirib qo‘ying, deb aytmaysanmi, begona emasman-ku, o‘zim aylanib ketay sendan. To‘xta, – xonasidan yog‘och taroqni oldi-da, apiltapil Xadichaning sochini tarab, bir o‘rim qildi. Bag‘riga qattiq bosib, yuz-ko‘zlaridan o‘pdi. – Aslida seni juda yaxshi ko‘raman. Endi yur.

Xadicha qisqa fursatda sodir bo‘layotgan bunday voqealarga tushunmay qoldi. Bir tush ko‘r-

yapman shekilli, degan farazga ham bordi. Ammo hovliga chiqishi bilan barchasini anglab yetdi.

– Amma! Ammajon!.. – Xadicha yugurib ammasining bag‘riga o‘zini urdi. Uning bo‘g‘zidan otilib chiqayotgan nido va ko‘z yoshlari to‘xtamasdi. So‘ng akasi bilan ham ho‘ng-ho‘ng yig‘lab ko‘rishdi.

– Xo‘sh, endi ketsak ham bo‘ladi, – dedi amma murg‘ak jonlarga mehrlil nigohlarini tikib.

Xadichaning to‘satdan yuzi oqardi. Tepasida qizigan kosov turganday qo‘rqib, orqasiga o‘girildi.

– E, shoshmang, opa. Xadichani bizga qoldirib ketasiz. Endigina u bizga, biz unga o‘rganib qolgandik. Axir onasiga so‘z berganmiz. Hech qursa, o‘zidan so‘rang.

Amma Xadichaga qaradi. Xadicha yana yig‘ladi-da, ammasining oyog‘ini quchoqlab oldi. Shunda amma qizchanning qo‘llaridagi, oyoqlaridagi jarohatlarga ko‘zi tushdi-yu, yanganing oldiga tutoqib bordi. Ko‘zlarini u yoqdan bu yoqqa olib qochayotgan yanganing yuziga bor kuchi bilan tarsaki tortib yubordi.

– Bolalarimni o‘zim katta qilaman, – dedi amirona ohangda va bu hovlida oxirgi qadamlarini tashlab, darvozadan uch inson qaytmas bo‘lib chiqib ketishdi. Chiqayotib qizning ko‘zi darvoza tepasida turgan musichaga tushdi...

Ular uzoq yo‘l yurib, bahaybat chinor oldiga kelganlarida amma to‘xtadi.

– Isomiddin, Xadicha, huv anavi g‘ishtin hovliga kirib, onangiz bilan xayrlashib chiqinglar.

– Amma, siz ham biz bilan yuring, – dedi Isomiddin hayajonlanib.

– Yo‘q, men sizlarni shu yerda kutaman.

– Tezda chiqamiz. Ketdik, Xadicha. Onamni biram sog‘indimki.

Xadicha akasining ko‘kargan ko‘ziga, yuzining timdalangan joylariga tikilib turdi. So‘ng onasi ketgandan keyin kechirgan kunu-tunlarini xayol tasmaidan bir-bir o‘tkazdi.

– Yo‘q, men bormayman. Hech qachon bormayman.

Amma ham, aka ham Xadichaga hayratomuz nigohlarini qadashdi. Amma uning boshini silagancha:

– Bu sen uchun oxirgi imkon bo‘lishi mumkin. Boraqol, – dedi.

– Yo‘q, istamayman. Bizni tashlab ketdilar. Bir martayam meni yo‘qlab kelmadilar. Qancha kutdim, qancha... – Xadicha yig‘lab yubordi.

Aka yolg‘iz o‘zi jo‘nadi. Beriroqdagi shildirayotgan, shivirlayotgan ariqning bo‘yida ammajiyani, yo‘q, ona-qiz yolg‘iz qoldi.

– Ammajon, bizni qanday topdingiz? – so‘radi qiz.

– Ustoz... – dedi amma jilmayib.

Qiz hayratlandi va yuziga ma‘sumgina tabas-sum yugurdi. Ariq mehmonlariga ancha sirlarini shivirlagach, uzoqroqdan darvozaning ochilib-yopilgan ovozi eshitildi. Aka har qancha yenglari bilan ko‘zini artmasin, yoshlarini tiyolmasdi:

– Ketskik, – dedi u ohista.

Bir yildan keyin tog‘aning egizaklaridan biri o‘libdi, degan xabar keldi...

Kunlar, oylar, yillar umrni, odamlarni, hatto urush degan dahshatli vahimani ham oqizib ketdi. Faqat... faqat... Xadichaning yuragidan umr bo‘yi azob bergan toshni oqizib ketolmadi...

MUNDARIJA

Mo'jaz mo'jiza.....	3
Marv tuti.....	5
Ey Ins.....	8
Kuzgi tufli	15
Xizr tashlagan qanot	33
Baliqning hikoyasi.....	45
Oqmaydigan tosh.....	65

Adabiy-badiiy nashr

BIBI ROBIA SAIDOVA

PARVOZ

Hikoyalar

Muharrir *U. Ro'ziyev*

Rassom *O. Qozoqov*

Badiiy muharrir *A. Mamasoliyev*

Texnik muharrir *N. Suvonov*

Nashriyot litsenziyasi №181. 08.12.11. Bosishga ruxsat 2014-yil 20-yanvarda berildi. Bichimi 70x90 $1/_{32}$. Ofset bosma usulida bosildi. «ArnoPro» garniturası. Shartli bosma to bog'ı 1,5. Nashr-hisob to bog'ı 3,0. Adadi 20 000 nusxa. Buyurtma №__

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «ADIB» nashriyoti. 100128. Toshkent. «O'zbekiston» ko'chasi, 16-uy.

Tel: (371) 245-89-24.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. 100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.